

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**  
**BITIRUVCHI KURS TALABASI**  
**BAROTOVA XURSHIDA JALOLOVNAning**  
**"BOBURNOMA"DA XOTIN – QIZLARGA MUNOSABAT"**  
**mavzusidagi**

*5 120 100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishida bakalavr  
akadem darajasini olish uchun yozgan*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**(2017-2018-o'quv yili)**

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent**

**HAYITOV SH. A**

**Buxoro– 2018**

# **"BOBURNOMA" DA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT**

## **REJA:**

### **KIRISH**

#### **1.BOB. "BOBURNOMA" NING TARKIBI VA TUZILISHI**

I.1. Asarning o'rganilish tarixi

I.2. Asarda badiiy va ilmiy talqin uyg'unligi

#### **2.BOB. "BOBURNOMA" DA AYOLLAR TASVIRI**

II.1. Ona mehri va Vatan muhabbati

II.2. Oqila ayol himmati

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab oq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan boy va rang-barang ma'naviy qadriyatlarimiz va madaniy merosimizni o'rganish va qayta tiklash, uning "insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan sarchashmalaridan xalqimizni bahramand qilish mamlakatimiz davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qoldi" (I, 3, 24). Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov uqtirganlaridek, "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy-axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi" (I, 7, 4). Mumtoz adabiyotimiz tarixiga sezilarli iz qoldirgan ijodkorlarning asarlarini har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Mustaqillik yillaridan boshlab, o'zbek xalqining buyuk farzandi, adolatli shoh, iste'dodli shoir, salohiyatli muarrix Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ning ijodiy me'rosini katta qiziqish bilan o'rganish ishlari olib borildi. Z. M. Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asari – jahon adabiyoti va manbaashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy ilmiy asar. Asar eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" nomlari bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa "Vaqoe" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan (II, 13, 41). "Boburnoma"da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy, siyosiy voqealar yilma yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bobur ijodining o'zgachaligi, "Boburnomaning nechog'lik tarixiy ahamiyatga ega ekanligi bu asarni yanada chuqurroq o'rganish vazifasini tug'diradi. Bobur merosini xalq ommasiga yetkazish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Shoirning boy she'riy merosi kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan. Boburning serqirra ijodi bo'yicha diqqatga sazovor bo'lgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan" (II, 15, 149). "Boburnoma" XVI asrdan boshlab hozirgi kungacha dunyoning ko'pgina

tillariga – ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu tillariga bir necha martalab tarjima qilindi. Sharh, izohlar bilan nashr etildi "Boburnoma"ning jahonga mashhur bo'lishida, asosan, ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashri (ingliz tilida) 1826-yilda J. Jeyden va V. Erskin amalga oshirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij "Boburnoma"ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Boburning she'riy merosini o'rganishda o'zbek olimlari ham salmoqli hissa qo'shdi (II, 43, 66). Professor Fitrat tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" xrestomatiyasida "Boburnoma"dan parchalar, Boburning 31 g'azali, 2 masnaviy va 28 ruboiysi keltirildi. Yuqorida zikr qilinganlar garchi, Bobur merosini o'rganishda ma'lum yutuqlar va siljish borligini e'tirof qilsada, hali Bobur hayoti va ijodiy faoliyati, memuar asar – "Boburnoma" ni atroflicha, to'laligicha o'rganish davr talabidir. Bobur ijodidagi yuksak cho'qqi "Boburnoma" bir necha bor kitobxonlar hukmiga havola qilingan. "Boburnoma"ning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan munosib o'rni allaqachon hal qilingan bo'lsada, lekin adabiyotshunoslik fanining so'nggi yutuqlari va Vatanimiz o'z istiqloliga erishgandan so'ng "Boburnoma" ning ilgari to'laligicha o'rganilmagan qirralarini tadqiq etish san'atkor ijodini bir butun holda anglash va baho berish uchun zarurdir (II, 42, 130).

Hozirgi davrda jamiyatning ma'naviy rivojlanishida ijtimoiy-ruhiy muhitning poklanishiga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Mirzo Bobur ayollik latofatini nihoyatda qadrlagan. Ana shu tuyg'u unga yuksaklik va oliyjanoblik baxsh etgan, o'z qadr-qimmatini baland tutishga odatlantirgan Bobur shaxsiga xos ayni fazilatlar ushbu kichik ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Bitiruv malakaviy ishi uchun "Boburnoma" asari tadqiqot manbai qilib olindi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi:** Bobur hayoti va ijodi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida ancha samarali ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Porso Shamsiyev, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Vahobjon Rahmonov, Botirxon Valixo'jayevlarning nomini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Adabiyot darsliklari va

ilmiy jurnallarda ham Bobur hayoti va ijodi, "Boburnoma" asarining tahlili, amaliy ahamiyati yuzasidan turli xildagi maqolalar chop etilgan va etilmoqda.

**Bitiruv malakaviy ish maqsadi.** Mirzo Bobur ko'ngliga juda yaqin bo'lgan tuyg'ular, ayolning go'zalligi va fazilatlari "Boburnoma" sahifalarida yorqin aks etgan. Boburning ayol qahramonlari, chuqur tafakkur egalari, tashqi chiroy ruhiy dunyosining go'zal husniga mutanosib bo'lgan siymolardir. "Boburnoma" dagi Istiqlol davri farzandlariga ibrat bo'ladigan ayni jihatlarini o'rganishni kichik tadqiqotimizning asosiy maqsadi qilib oldik.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

- "Boburnoma" asosida ishlangan turli ilmiy asarlarning qisqacha tavsifini berish;
- Boburning go'zallik va nafosat timsoli bo'lgan ayollarga munosabatini oydinlashtirish;
- Asarda nomlari tilga olingan xotin-qizlarni tasnif qilish. Ularni qaysi shajaraga mansub ekanliklarini ko'rsatish;
- Oliyjanob va saxiy qalb sohibi, Mirzo Boburning xotin-qizlarga munosabatini o'rganish orqali Bobur shaxsiyatiga xos xususiyatlarni tadqiq qilish ;
- Boburning badiiy tasvirdagi mahoratini ochib berish.

**Bitiruv malakaviy ishning yangiligi:** Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. Boburnoma"da keltirilgan ayollar timsoli ilk bor maxsus mavzu sifatida o'rganiladi.
2. "Boburnoma"da nomlari zikr etilgan ayollar ijobiy va salbiy xususiyatlariga ko'ra ajratilib, alohida-alohida sarlavhalar ostida tahlil qilinadi.
3. "Boburnoma" muallifi talqinlaridan kelib chiqib asarda nomlari tilga olingan ayollar tasnif qilinadi.

4. Muallifning ayollarga nisbatan axloqiy-ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan munosabati tahlillar jarayonida yoritib boriladi.

5. Xotin-qizlar timsolini yaratishda muallifning badiiy mahorati masalalari imkon qadar tadqiq etiladi.

**Tadqiqot manbai va nazariy – usuliy asosi.** Mustaqil diyorumizda ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib, bu masalalar davlat dasturi maqomiga ko'tarildi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" (I, 6, 326). "Mamlakatimiz ilm-fani rivojiga buyuk hissa qo'shgan ajdodlarimizning madaniy meroslari xalqimizning ma'naviy boyligidir" (I, 1, 99) . Undan unumli, oqilona foydalanish va ushbu muqaddas merosni qadrlash har birimiz uchun farz ham qarzdir. Zero, "...buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari, xalq xotirasi va uning taqdiri munosib davom etishga loyiqdir" (I, 2, 160). Yuqoridagi fikrlar bitiruv malakaviy ishining g'oyaviy asosini belgilasa, tadqiqotning metadalogik asosini adabiy meros va uning ma'naviy-ma'rifiy, amaliy ahamiyati kabi masalalar tashkil etadi. Shuningdek, mavzuni yoritishda Abdurauf Fitrat, Porsoxon Shamsiyev, Saidjon Aliyev, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Botirxon Valixo'jayev, Hasan Quadratillayev, Rahim Vohidov, Vahobjon Rahmonov, Karomat Mullaxo'jayeva, G'ofurjon Satimovlarning ilmiy tajribalari asos qilib olindi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati:** Ushbu kichik tadqiqotning natijalarida o'rta umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, o'zbek mumtoz tarixini o'qitishda amaliy foydalanish mumkin. Shuningdek, turli tashkilot va muassasalarda o'tiladigan ma'rifat darslarida ushbu kichik tadqiqotda mavjud tahlil va dalillardan foydalanish mumkin. Ishimiz adabiyot tarixi bilan shug'ullanuvchilar, Boburning ko'pqirrali ijodini tadqiq qiluvchilar, talabalar, maktab o'qituvchilari uchun o'quv metodik qo'llanmalar tayyorlashda ham qo'l keladi.

**Tadqiqot metodlari.** Obyektiv kuzatgan holda, biografik, struktural va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanildi.

**Ilmiy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi BuxDU filologiya fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi, o'zbek adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

**Bitiruv malakaviy ish tuzilishi:** kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

# **I. BOB. "BOBURNOMA"NING TARKIBI VA TUZULISHI.**

## **1.1 ASARNING O'RGANILISH TARIXI**

"Mumtoz adabiyotimizning tarixida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlarning vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik tuyg'ularini targ'ib etuvchi asarlari ma'naviyatimiz va madaniyatimizning taraqqiyot yo'llarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega" (I, 10, 101). Shu bois, ma'naviy merosni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida mumtoz adabiyotimizning durdonalarini har tomonlama chuqur o'rganishga keng yo'l ochildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning: "Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi", – degan fikrlari shu paytdan boshlab muhim ahamiyat kasb etdi (I, 8, 524). Shu boisdan, barcha ilm fidoiylari Vatanimiz hududida yashab faoliyat ko'rsatgan ijodkor bobokalonlarimiz ma'naviy merosini o'rganish, ularni targ'ib etish, chop etish borasida samarali ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, o'zbek adabiyotining yorqin siymosi, o'zbek va hind xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida o'chmas iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti yo'li, ijodiyoti va uning umr kitobi "Boburnoma" ni mufassal tadqiq etishda sezilarli ishlar qilindi. Biz ham ushbu kichik ishimizda ustozlarimiz izidan borib, Bobur shaxsiyatiga xos xususiyatlarni, "Boburnoma"ning ilmiy ahamiyatini, "Boburnoma"dagi har bir xotin-qiz timsolining siyrati va suratiga xos xususiyatlarni baholi qudrat o'rganishni maqsad qildik.

"Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo madaniyatida iste'dodli shoir, voqelikni teran anglagan va yorqin chizgilarda tasvirlagan nozikta'b ijodkor, mahoratli sarkarda, adolatli hukmdor, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot asoschisi hamda buyuk imperator sifatida iz qoldirgan. Shoirning Vatan sog'inchi aks etgan,



yor-u diyor madh etilgan, dunyo sitamlaridan ozurda qalb tug'yonlari jo bo'lgan sermazmun g'azallari, ruboiylari kitobxonlar shuuridan joy olgan" (II, 38, 31-32). Uning "Boburnoma" asari ijodkor aqliy salohiyati, tafakkur darajasi, sinchkov tabiatining yorqin ifodasi, dunyo afkor ommasini hayratga solgan bemisl tafakkur mahsulidir. Asarning qomusiy xarakteri ko'p bora ta'kidlangan. Darhaqiqat, asarda ijtimoiy hayotning muhim sohalariga doir qimmatli ma'lumotlar jamlangan.

Azaldan sharq xalqlari madaniyati va tarixida hamisha saxovat, ochiqqo'llik insonning eng yaxshi xususiyati sifatida qadrlanib kelingan. "Boburning "Boburnoma" asarida ham muallif o'zining qalamravidagi oddiy olamdan boshlab otasi Umarshayx, Temuriy shaxzodalar va beklar xususiyatidagi karam, xayr-u saxovatni olqishlagan. Bu xususiyat ularning ijobiy jihatlarini to'ldirgan" (II,31, 31). O'zining umr kitobida qisqa bir davrni tasvirlashda butun bir fan olamiga; hayvonot, nabotot, o'simliklar dunyosi, tarixiy geografik hududlar, harb ishiga, har bir yurtning milliy madaniyatiga, urf-odatlariga alohida to'xtalib, adabiyotning nodir namunasini yaratdi. Bobur uzoq umr ko'rmadi. Ba'zi podshohlardek hayoti sermazmun va mas'ud kunlarga boy bo'lmadi. Juda qisqa bir davrda misli ko'rilmagan ilmiy yangiliklarning, kashfiyotchisiga aylandi. "47 yillik umri davomida jahonga mashhur "Boburnoma" ("Vaqoe") qomusiy asari, 400 dan ortiq turli janrlardagi she'rlar ijod etib, ularda asl adabiy tilimizning nasriy va nazmiy go'zalligini, boyligini nuqtadonlik bilan aks ettira bildi. Qalbimizni tilimiz boyligiga, adabiyotga, ma'naviyat va ma'rifatga oshufta eta oldi" (II, 30, 8). Bobur, birinchi novbatda, shoh , boburiylar sulolasining asoschisi bo'lsa, keyingi o'rinda uning iste'dod sohibi ekanligining guvohi bo'lamiz. U buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina "Boburnoma" asarida uning 20 dan ortiq sohalarga qiziqqanligiga guvoh bo'lamiz. Shu asar Boburga jahoniy shuhrat keltirgan. Shuning uchun ham ingliz sharqshunosi Anetta Beverijxonim uni: "Boburnoma" butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir, – deydi (II, 35, 4). Shubhasiz, "Boburnoma" – jahon adabiyoti va manbaashunosligidagi muhim va

noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy ilmiy asar. "Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/19 – 1530 ). "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Bobur " kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa "Vaqoe" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan " (II, 24, 605). "Boburnoma"da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

"Boburnoma" o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra uch qismga: Boburning Movorounnahr (1494 – 1504), Afg'oniston (1504 – 1524) va Hindiston (1524 – 1530) dagi hukmdorlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi – temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx mirzo (1462 – 1494) xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi (XV asr 90-yillari) , Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jang-u jadallari ( 1497 – 1501 ) ning behuda ketishi, va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani (1511), lekin Shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton) dan yengilib (1512) Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib ( Panipat janglari ), Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat.

"Boburnoma"da keltirilgan barcha ma'lumotlar, xususan Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va Shimoliy Afg'onistonning XV asr 80-90-yillari va XVI asr I choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o'zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, bu asar

muallifining muayyan tarixiy voqea haqida hamda o'zaro dushmanlik qilgan temuriylar – Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'dansunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqa sohalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. "Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol yarog' turlari, qo'rg'onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko'plab harbiy-ma'muriy istilohlar (turkman, ulus, ko'kaldosh, eshikog'a, axtachi, tarxon, shig'ovul, sharbatdor, mubashshir, tug'chi, miroxur, rikobdor, dorug'a, murchil, manjaniq, o'ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek "Boburnoma"da temuriylar qo'shinining tuzilishi, harbiy san'ati va boshqalar haqida ham noyob ma'lumotlar bor" (II, 32, 11). Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, an'anaviy tadbir marosimlari, shuningdek, o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar va viloyatlarning jug'rofiy- ma'muriy tuzulishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo'jaligi, daryo va suv havzalari, cho'l-adirlari, tog'-sahrolari, bog'-rog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi. Xususan, XV – XVI asrlarda Turkiston viloyatida yashagan Qora Qo'yluq (Qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrda turk-mo'g'ul qabilalarining urf-odatlarini, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa, ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. "Boburnoma"da Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi Mascho, Hisor, Chag'oniyon,

Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan.

"Boburnoma"da muallif qaysi yilni, qaysi yurtni izohlasa, eng avvalo, shu davrdagi adabiy tilning nufuzi, shu yurtdagi shoirlarning ijodiy merosi, adabiyotning nozik qirralari haqida alohida to'xtalib o'tadi. Jumladan, XV – XVI asrlarda Xuroson va Movorounnahr, Hindiston va Afg'oniston, Eron va Turkiyada fors tili va adabiyoti nufuzining qay darajada yuksak ekanligini "Boburnoma" kotibi va tarjimoni so'zlari bilan izohlash mumkin. Asarning fors tiliga o'girilishi Hindistondan Turkiyagacha bo'lgan juda ulkan hudud xalqlariga, ziyolilariga yetib bordi degan ishonch edi: kotib "Boburnoma"ni nazarda tutib yozmoqda, "Ushbu kitobkim, "Boburiya"dur, Bayramxonni og'li Mirzoxong'a buyurdilarkim, turkiydin forsiyg'a kelturgilkim, turkiy bilmag'on xaloyiqqa oson bo'lg'ay" (II, 16, 149).

"Boburnoma"ni fors tiliga o'girgan Rashid Axtar Nadviy Bayramxonning o'g'li Abdurahim Xoni Xononning ilk forsiy tarjimasi xususida to'xtalib yozadi: "Shundan keyin jahon ahli birinchi marta buyuk tojdor (Bobur)ning so'z mulkining ham shahanshohi ekanidan xabar topdi" (II, 24, 607).

Yana "Boburnoma"da muallif turkiyzabon va forsiyzabon qalam ahllarini hurmat-ehtirom ila tilga oladi. Jumladan: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husan Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beradi (II, 26, 134).

Shoh, adib, shoir, lashkarboshi Boburning "Vaqoye" ("Voqealar") keyinchalik "Boburnoma" nomida shuhrat qozongan asari Zahiriddin Boburning ongli hayoti va faoliyati muhim qismining kundaliksimon bayonidir. Shuning uchun shoir bu asar va uning o'z tarjimayi holiga nechog'liq daxldorligi xususida bir ruboiysiga shunday yozadi:

*Bu olam aro ajab alamlar ko'rdim,*

*Olam eliding turfa sitamlar ko'rdim.*

*Har kim bu "Vaqoye"ni o'qur bilgaykim,*

*Ne ranj-u, ne mehnat-u, ne g'amlar ko'rdim* (III, 49, 18).

"Boburnoma", avvalo, yetuk badiiy asar. Badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea-hodisalarni butun voqeyiligi bilan kitobxon ko'z oldida gavdalandira olish, so'z ustida san'atkorona ishlash, uslub baquvvatligi – bu uslubning bir xususiyati fikran saxiylik-u ixcham bayon bo'lsa, ikkinchi xususiyati – o'zigagina xosligi va, eng muhimi, ta'sirchanlik ustuvorligidir. Bu asarning qimmatini uning ko'p tillarga tarjimasini bilan bog'liq. Xususan, XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko'p tillariga – ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillarga tarjima qilindi. Sharh, izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida "Boburnoma"ning insoniyat yaratgan o'lmas obidalar qatorida alohida o'rinda turishi ta'kidlanadi. Shundan so'ng bu memuar asarni mufassal o'rganish ishlari boshlandi. Dastavval, Yevropa mamlakatlari bu asarni o'rganishda jonbozlik ko'rsatishdi. Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy tuzum va siyosiy ahvol "Boburnoma"ni o'rganishda biroz to'sqinlik qildi. "Asarning jahonga mashhur bo'lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashri (ingliz tilida) 1826-yili J. Leyden va V. Erskinlar tomonidan amalga oshirildi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878-1909) uning qisqartirilgan nashrini chop etdi. 1921 yilda ingliz sharqshunosi Anetta Beverij "Boburnoma"ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina, Angliyaning o'zida "Boburnoma" tarjimalari 9 marta nashr etildi. Yevropa ilmi ahliga "Boburnoma"ni birinchi marta tanishtirgan olim Vitsen bo'ldi. U 1705 yilda asardagi Farg'ona vodiysi geografiasiga oid tasvirlarni tarjima qilib, Amsterdamda nashr ettirdi" (II, 43, 68).

Biroq Boburning Yevropadagi chinakam shuhrati roppa –rosa yuz yildan keyin XIX asr boshlarida qaror topdi. Bu ishda ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Ular asarni tarjima qilib, nashr ettirishdan tashqari, uni tadqiq etish,

Bobur hayotini, shaxsiy qobiliyatlari Yevropa tadqiqotchilarini hayratda qoldirgan edi. Bobur siyosida ular ulkan sarkarda, mohir davlat arbobi, dilbar va dilkash insonni ko`rdilar.

Tarixshunos Elfinston Boburni "Sharqning Yuliy Sezari" deb ataydi. Leyn Puul bo`lsa: "o`z portretini chizishdagi samimiylik, fazilat va kamchiliklarini haqqoniy tasvirlash, ochiq ko`ngillilik va rostgo`ylik"ni Boburning ajoyib xislati deb tariflaydi. "Boburnoma" tarjimoni Erskin esa bunday deb yozadi, "Bobur xarakterining mislsiz belgisi uning boshqa muldorliklarnikiga o`xshamasligidir. Osiyo tojidorlaridagi dabdaba, sun`iy xarakter o`rniga bizning ko`z oldimizda Boburning xakteri tabiiy, hayotni sevuvchi, samimiy bo`lib gavdalanadi" (II, 41, 8-9).

Bobur taxtda o`tirishiga qaramay, oddiy turmushning eng yaxshi tuyg`ularini va ishtiyoqini o`zida saqlab qoldi. Osiyo hukmdorlari orasida Bobur singari genial va talantli kishilar kamdan-kam uchraydi. Uni aqlning aktiv faoliyati, xushchaqchaq sovuqqonlik va bevafo taqdirning nayranglariga qaramay ruhining tetikligi...saxovati, mardligi...fanga, san`atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug`ullanishi kishini hayratda qoldiradi.

Boburdagi bunday fazilatlar avvalambor uning genial asari "Boburnoma"da aks etgandir. "Boburnoma" Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobur har bir odamning tashqi ko`rinishi, kiyimi, ta`bi-odatini ifoda etadi va mamlakatlarni ularning iqlimi, peyzajini, xo`jaligini, san`at va hunarmandchilik asarlarini tasvirlab beradi. Lekin asarga muallif xarakterining o`zi eng ko`p joziba baxsh etgan", deb yozadilar I. K. Singh va U.Benderdji (II, 42, 137).

"Boburnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilgan Jon Leyden va Vilyam Erskinlar bir-biridan bexabar holda ish boshlagan edilar. B. Erskin fors adabiyoti bo`yicha bir qancha tadqiqotlar muallifi, Britaniya muzeyidagi ko`pgina qo`lyozmalarini to`plagan va o`rgangan atoqli sharqshunos edi, doktor Leyden esa fors tildan tashqari yana eski o`zbek tilini va hind tilini o`zlashtirgan bilimdon shaxs bo`lgan. Har ikki tarjimon ham "Boburnoma" bilan Hindistonda tanishganlar va uni o`sha yerda tarjima qilishga kirishganlar.

B.Erskin Abdurahimxon ibn Bayramxonning forsiy nusxasi asosida tarjimani 1811 yildan boshlab, 1817 yilda oxiriga yetkazdi. A. S. Bevirij xonim aytganidek, Erskin “yevropalik boburshunoslar ichida pioner edi”, u “dunyo kitobxonlari” oldida katta xizmatni ado etdi (II, 44, 312). Biroq Erskin tarjimani nashr ettirishga shoshilmaydi, bu orada u doktor J. Leyden ham “Boburnoma”ni inglizchaga o`giranini eshitib qoladi va bu tarjima bilan tanishishga oshiqadi .

J.Leyden bevaqt vafot etib, tarjima oxiriga yetkazilmay qolgan. Erskin Leyden tarjimasini qo`lga kiritib, o`ziniki bilan solishtirib chiqish maqsadida, Londonga xat yozadi. Leyden tarjimasining o`zidikidan katta farqi borligini ko`rgan Erskin hayron qoladi; nima qilganda ham, Leyden originaldan o`giran edi-da! Erskin tarjimalarni batafsil solishtirib, ish davomida kontekstga mos kelmaydigan joylarni tuzatib, puxtalab boradi.

Shu orada u “Boburnoma”ning turkiy originalini Elfinston dan so`rab oladi va ishning hammasini solishtirib chiqishni niyat qiladi, chunki Leyden chig`atoy turkiy tilini yaqin orada o`rganganligi sababli tarjimaning ko`p joylarida sahiv joylari bor edi. Shuning uchun ham Erskin diqqat va ehtiyotkorlik bilan turkiy va forsiy variantlarni solishtirib chiqadi. “Shunday qilib,”Boburnoma”ning qolgan qismini turkiy original, forsiy tarjima va Elfinston orqali janob Metkalfdan olgan nusxalar bilan solishtirib, ishni oxiriga yetkazdim” , deydi (II, 44, 313).

V.Erskinning aytishicha, Metkalf nusxasi eng ishonchli manba bo`lib hisoblanadi. “Mening chig`atoyi turkiydan olgan bilimim “Boburnoma”ni originalidan o`girishga yetarli emas edi,-deb yozadi tarjimon, - shuning uchun forscha manbaga ko`proq tayanib ish ko`rdim. Baxtga qarshi Leydenga yordam bergan turk, ”o`zbek tili” mutaxassisi Ganj Elfinston dan turkiy originalni olgunumcha , Bombeydan ketib qolibdi, shu tufayli sodiq do`stim Mulla Feruzning yordamiga tayanib, turkiy tekstni ko`rib, tarjima bilan solishtirib chiqishga muyassar bo`ldim. O`ylaymanki, tarjima kamchiliklardan xoli bo`ldi” (II, 44, 314).

Bu faktlar tarjimonning o`z ishiga qanchalik mas`uliyat bilan qaraganligi, “tarjimonning ilmiy aniqlikni ta`minlash uchun nechog`lik ko`p mehnat

sarflaganligini ko`rsatadi. V. Erskinning niyati faqat “Boburnoma”ni ingliz kitobxoniga tanishtirishgina emas, u asl nusxa o`rnini bosadigan darajada puxta, ishonchli inglizcha variantni yaratishni ko`zlab, ish ko`rgan. Chuqur ilmiy ijodiy mehnat mevasi bo`lgan bu tarjima haqiqatan muvaffaqiyat qozondi va mutaxassislarning tahsiniga sazovor bo`ldi. Chunonchi, sharqshunos Lord Jefrey deydi: “Erskin o`z tarjimasiga ajoyib hoshiyalar ilova qilgan, tekst ostidagi tushuntirishlarni ham mohirona ham shoirona bajargan” (II, 43, 66). Elfinston esa tarjimaning puxtaligi haqida to`lqinlanib bunday yozgan edi: ”Tarjima xuddi originaldagi singari uslubi jozibador, xuddi asliga qarab rasm olganday”. Shunday qilib, V. Erskin J.Leyden tarjimasini qayta ishlab chiqib, ishni oxiriga etkazadi va “Boburnoma” Leyden-Erskin tarjimasini nomi bilan 1926 yilda Londonda chop etiladi. Ayniqsa, tarjimaga yozilgan kirish so`z va muqaddima qismlari juda katta ilmiy qiymatga molikdir. Bundan kitobxon “Boburnoma”ga oid qiziqarli materiallar, tanqidiy tekst tuzish uchun olib boriladigan izlanishlar, qadimiy ishonchli nusxalar, “Boburnoma” bilan shug`ullangan sharqshunos olimlar to`g`risida keng ma`lumot olish mumkin. Erskin bu nodir asarni tiklashda ko`p manbalarga suyangan. Hofizxon Muhammad Hoshim, Henri Rassel, Vilyam Mayl kabi sharqshunos olimlarning kitoblaridan, ayniqsa, E. Davning “Boburning hayoti” va sharqshunos Jon Brig bergan maslahatlaridan unumli foydalanilgan. Lekin asosiy yordamni u tarixchi Elfinstondan olgan. Shu tariqa u katta qiyinchiliklarni yengib, butun aqlu-zakovatiini ishga solib, “Boburnoma”ning inglizcha variantini vujudga keltirdi.

O`zbek nasrining XVI asrdagi betakror go`zal namunasi bo`lgan “Boburnoma” ko`plab sohalarga doir bilimlarni qamrab olgani bilan shu turda yozilgan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda muallif o`z ko`zi bilan ko`rgan, eshitgan real voqea va hodisalarni ishonchli manbalarga asoslangan holda keltirgan. Bu haqda Bobur mirzoning o`zi bunday deydi: "Bu bitilganlardin g`araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo`lg`onlardin maqsad o`zning ta`rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda



andoq iltizom qilibturkim, har so`zning rostini bitilg`ay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgan" (III, 48, 303).

“Boburnoma”dagi ma’lumotlar shu qadar ishonchliki, undan keyin yaratilgan mashhur “Haft iqlim” va Ravzatul-jannat”dagi butun-butun boblar (masalan, Qobul va Qandahorga bag`ishlangan) “Boburnoma”ga to`liq mos keladi, ya’ni undan olinganligi aniq. Mirzo Bobur keltirgan ma’lumotlarning aniq va ishonchliligini XX asr boshida Afg`oniston haqida tadqiqot olib borgan rus olimlarining axborotlari ham tasdiqlaydi" (II, 36, 34).

V.V.Bartold o`zining mashhur “Иран. Исторический обзор” nomli asarida “Boburnoma”dagi ma’lumotlarga yuksak baho berib yozadi: “...jug`rofiy tasvirlar, masalan, Farg`ona hamda Samarqand va uning tevarak-atroflari tasviri haqli ravishda qadimiy deb tan olinadi” . XVI asr tarixi, madaniyatini, o`rganishda “Boburnoma”ning ishonchli manba ekanligini yana bir qator mutaxassis ham ta’kidlagan (II, 21, 3).

Asarda Hindiston chuqur bilimdonlik bilan shu qadar aniq tasvirlanganki, “Hindiston haqida Abu Rayhon Beruniydan keyin hech bir o`zbek olimi bunday mukammal asar yaratmagan edi”. “Hindiston” asaridagi ma’lumotlarni faqatgina “Boburnoma”dagi ma’lumotlar bilan solishtirish mumkin, xolos.

Shu aytilganlarning o`zidanoq “Boburnoma”ning mislsiz qomusiy asar ekanligi ayon bo`ladi. Yuz yillar davomida turli xalq va elatlar tomonidan mazkur kitobning atroflicha va chuqur tadqiq etilishi, tarjima qilinishi hamda qayta-qayta nashr etilishi, jahon xalqlarining bu asarga qiziqishining tobora ortib borayotganini bildiradi. “Boburiylar o`zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo`ri, davomchilaridan deb bildilar. Movaraunnahr va Xurosonda Temuriylar davlatini taraqqiyparvar mohiyatini birinchi bo`lib ochib bergan I. M. Mo`minov boburiyzodalar haqida bunday deb yozgan:“...ayniqsa, Hindistondagi Bobur va Akbarshohlar O`rta Osiyoda Temur davrida qaror topgan ekonomika va madaniyatni rivojlantirish bilan bog`liq eng yaxshi an'analarni davom ettirdilar” (II, 38, 34).

Yevropa tarixiy manbalarida va uning ta'sirida Sharq mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokistonda hamda Rossiyada Boburiylar saltanatini "Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi" deb atash bir udumga aylangan. Boburiylarga nisbatan ushbu nomning xato ekanligini olimlar allaqachon isbotlab berganlar. "Buyuk mo'g'ullar" degan ibora Chingizxon va undan keyingi mo'g'ul qoon (xoqon)lari (Uktoy qoon, Guyuk qoon, Munka qoon)ga taalluqli bo'lib, Boburiylar aslida Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlaridir" (II, 38, 35).

V.V.Bartold ham mazkur nom haqida bunday degan: "Yevropaliklar Temurni va uning o'g'illari hamda nabiralarini mo'g'uldan tarqalgan deb hisoblab, Bobur saltanati uchun "Buyuk mo'g'ullar" degan nom to'qidilar" (II, 38, 35).

Samoylovich esa Bobur Mirzoni "buyuk turkiy" deb atagan. Boburiylar sulolasi haqida risola muallifi J.Yusuf ham "Boburiylarning mo'g'ul deb atalishi ajib bir tasodifdir" deydi. Taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afur esa boburiylar mo'g'ul emaslar, bu "...tarixiy anglashilmovchiliklardan bittasi" deb aytgan edi (II, 38, 35). Hozir olim va adiblarning sa'y-harakatlari tufayli tarixiy haqiqat tiklandi, deb aytish mumkin hamda buyuk ajdodlarimiz endi "Boburiylar" deb, ular asos solgan saltanat esa "Boburiylar saltanati" deb atalmoqda.

"Boburnoma"ning yozilgan davridan uning shuhrati yanada oshdi. Chunki bu asar turli tillarga shu davrning o'zidayoq tarjima qilindi. Xususan, asarning fors tiliga tarjima qilinishida muallifning o'zi bosh-qosh bo'ldi. "Boburnoma"ni fors tiliga tarjima qilishning birinchi tashabbuskori Boburning o'zi bo'lib, u hayot vaqtidayoq o'z asarini fors tiliga tarjima qilishlarini so'ragan edi.

Bu orzu amalga oshirildi. Hozir "Boburnoma" ning to'rtta forsiy tarjimasi ma'lum. Bu ishga birinchi bo'lib qo'l o'rgan kishi "Shayx Zaynuddin"/Shayx Zayndir. Shayx Zayn Boburning mirzasi bo'lgani uchun, uning farmonlarini o'z tarjimasiga ilova qilgan.

Shayx Zayn tarjimasi 932-933/1525-1526/ yillar orasidagi o'n bir oylik voqealarni qarab oladi. Bu tarjimaning ikkita nusxasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Ikkinchi forsiy tarjima Hasan Poyandaxon degan kishi tomonidan

boshlangan bo'lib, Muhammadquli Hisoriy uni davom ettirgan va 1585 yilda oxiriga yetkazgan.

Biroq tarjimaning Bodleyn fondida va Hindiston tashqi ishlar ministirligi qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan mavjud nusxalari asarni to'la qamrab olmaydi. Akbarshoh zamonida uning topshirig'i bilan "Boburnoma"ni Mirza Abdurahimxon ibn Bayramxon fors tiliga to'la tarjima qilgan bu tarjima ancha mukammal bo'lib, uslubi tarzi ,jihatidan asl nusxaga yaqin edi.

Shuning uchun ham asarning bu tarjimasi "ikkinchi original" sifatida tan olinadi va unga ko'proq etibor beriladi. Agar Shayx Zayn va Hasan Poyanda tarjimalarida rasmiy adabiy forsiy til talablariga amal qilingan Boburning o'ziga xos tili bir muncha o'zgartirilib, mavjud tarixiy memuarlar uslubiga moslashtirilgan bo'lsa, Abdurahimxon sodda, turkona adabiy tilning xususiyatlarini saqlashga intiladi.

Shuning uchun bo'lsa kerak , "Boburnoma"ning fransuz tarjimoni Pave de Kurteyl Abdurahimxon ishi haqida bunday yozgan edi: "Fors tiliga qilingan tarjima ko'pincha kitobxonga katta qiyinchilik tug'diradi. Uning uslubi, ayniqsa, turkiy so'zlarning ko'pligi, gohida to'lig'icha keltirilgan turkiy she'rlar, e'tiborsizlik fors kitobxonini qiyin ahvolga solib qo'yadi" (II, 24, 608). Aslini olganda, talay terminlar, harbiy so'zlarni sal turkcha holida berishga tarjimon majbur bo'lgan edi, negaki "Boburnoma" dagi ko'pgina so'zlar, iboralar, istilohlarning sof forsiy muqobilini topish mushkuldir. Abdurahimxon tarjimasi asarnig Sharqda keng tarqalishiga yo'l ochdi va Yevropa sharqshunoslarining diqqatini jalb etdi. Mazkur tarjimaning chiroyli ,miniatyuralar bilan bezatilgan nusxalari London, Parij, Leningrad, Kalkutta kutubxonalarida saqlanmoqda.

"Boburnoma" 1912 yilda Tog'aymurod Qarluqiy tomonidan to'rtinchi marta fors tiliga o'girildi. Bu tarjimaning bir nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. O'zbekistonlik va jahon olimlari sa'y-harakatlari, zahmatli ko'p asrlik mehnatlari tufayli Z. M. Bobur shaxsi butun barkamolligi bilan tarixiy va adabiy siymo sifatida baralla qad ko'tardi. Fanda boburshunoslik va

"Boburnoma"shunoslik yo'nalishlari yaqqol sezilib qoldi. Buyuk istiqlol shoh va shoir Bobur bo'y-bastini, uning oltinga teng nodir qo'lyozmalarini o'z eliga baralla namoyish qilishning yangi-yangi imkoniyatlarini yaratdi. Mustaqillik va milliy g'oya olimlarga boburshunoslikda o'ziga xos qanot berdi. Bobur ijodiga xos ilmiy yangiliklar, qomusiy asar "Boburnoma"ni o'rganish dastavval Yevropalik olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik O'rta Osiyolik olimlar ham Bobur ijodidagi o'zgachalikni aniqlashda sezilarli hissa qo'shdilar.

Boburning O'zbekistonda tanilishi, "Boburnoma"ning o'rganilishida olimlardan: Abdurauf Fitrat, Maqsud Shayxzoda, Homil Yoqubov, Oybek, Olim Sharofiddinov, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Aziz Qayumov, Vohid Abdullayev, Natan Mallayev, Botirxon Valixo'jayev, Xosiyat Nazarova, Hamidulla Hasanov, Said Aliyev, Aleksandr Samoylovich, Iya Stebleva, Mixail Salye, Sabohat Azimjonova, Saidbek Hasanov, Abdurashid Abdug'afurov, Yoqubjon Is'hoqov, Ibrohim Haqqul, Turg'un Fayziyev, Fozila Sulaymonova, Fathiddin Is'hoqov, Hasanjon Qudratillayev, Ismoil Bekjon, G'aybulla Salomov, Ne'matulla Otajonov, Ansoriddin Ibrohimov, Rahim Vohidov, Hamidulla Boltaboyev, Iqboloy Adizova, G'afurjon Sotimov, Zokirjon Mashrabov, Sayfiddin Jalilov, adiblardan Pirmqul Qodirov, Xayriddin Sultonov, Qamchibek Kenjaning xizmatlari qayd etgulikdir.

Boburning she'riy merosini o'rganishda O'zbekistonlik olim, Professor Fitrat tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" xrestomatiyasida "Boburnoma"dan parchalar, Boburning 31 g'azali, 2 masnaviy 28 ruboiysi o'rin oldi. Filologiya fanlari nomzodi M. Salye "Boburnoma" ni rus tiliga to'la tarjima qilinishi, 3 marta nashr ettirilishi (S. Azimjonovanning kirish so'zi va tahriri ostida), P. Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan "Boburnoma"ning ikki jildli va bir jildli nashri chop etilishi, bundan tashqari, "Boburnoma"ning o'zbekcha tabdilini yaratishda salmoqli hissa qo'shgan Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jayevalarning boburshunoslikda qilgan xizmatlarini alohida e'tirof etish ayni maqsadga muddaodir. Yana bu sohadagi bir qator ilmiy izlanishlar natijalarini qayd etsak, jumladan, Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov Bobur asarlarining

uch jildligini e'lon qilganliklari; Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev "Boburnoma" ning ilmiy-tanqidiy matnga yaqinlashtirilgan mukammal nusxasini nashr etganliklari, Saidbek Hasanov Boburning "Mufassal" nomli yirik aruz tadqiqotini "Muxtasar" nomi ostida aslining fotofaksimil nusxasini va matnini kirill harflarida nashrga tayyorlab chop ettirgani, Iya Steblevaning "Bobur g'azallari semantikasi" tadqiqotining yaratilgani, Salohiddin Jamolovning "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari, Xosiyat Nazarovaning "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at", Sabohat Azimjonovaning "Boburning Kobul va Hindistondagi davlati", G'aybulla Salomov va Ne'matulloh Otajonovning "Boburnoma jahon kezdi" kitoblarining olam yuzini ko'rgani boburshunoslikda qo'shilgan ilmiy hissalaridan bo'ldi.

Buyuk Istiqlol shabadalari esgan bir davrda Bobur ijodiga va "Boburnoma" ga xos ilmiy yangiliklar, ilmiy kitoblar, badiiy asarlar, yuzlab maqola, o'nlab risola, monografiyalarning chop etilishini alohida qayd etishga to'g'ri keladi (III, 49, 52) . Hasanjon Qudratillayevning "Bobur armoni", "Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi", Rahim Vohidovning "Biz bilgan va bilmagan Bobur", Iqboloy Adizovanning "So'zimni ko'rub anglag'aysen o'zumni...", Ansoriddin Ibrohimovning "Boburnoma" – buyuk asar", "Boburnoma"dagi hindcha so'zlar", G'ofurjon Sotimovning "Boburiyzodalar", "Markaziy Osiyo va Hinduston tarixida Boburiylarning o'rni", "Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi", Sayfiddin Jalilovning "Bobur va Yuliy Sezar", "Bobur haqida o'ylar", Fathiddin Is'hoqovning "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'at", Shokirjon Rustamxo'jayev va Zuhra Berdiyevlar tuzgan "Bobur va boburiylar bibliografiyasi", Ziyodaxon Teshaboyevaning "Boburnoma"dagi frazeologik birikmalar va paremiyalarning inglizcha tarjimalari lug'ati", Zokirjon Mashrabov va S. Shokarimovning "Asrlarni bo'ylagan Bobur", Aziz Qayumov va Saidbek Hasanovning "Bobur ijodiyoti", Dildora Hoshimovaning "Boburning qiyoslash mahorati", Qamar Raisning "Bobur shaxsi va she'riyati", Shafiqa Yorqinning "Bobur devoni. Takmila"; Komron "Devon" I (ilmiy-tanqidiy matn), Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Harol Lambning "Bobur – Yo'lbars", Xondamirning "Habib us – siyar fi axbori afrodi

bashar", Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarining o'zbek (2010) va rus (2013) tilidagi to'liq nusxalari nashri, Rumer Godenning "Gulbadan" romani, Pirmqul Qodirovning "Bobur, Avlodlar dovoni" romanlari, Xayriddin Sultonovning "Boburning tushlari", "Saodat sohili", "Boburiynoma" qissalari va ma'rifiy romani, Qamchibek Kenjaning "Hind sorig'a", "Buyuklar izidan", "Andijondan Dakkagacha", " Andijondandan Bag'dodgacha" safarnomalari, Durbek Qo'ldoshevning "Imperatorning tug'ilishi", "Shaxrisabz xayoli" shular jumlasidandir. Ushbu boburshunoslikdagi ilmiy-ma'rifiy yutuqlarning so'nggi haddi a'losi "Zahiriddin Muhammad Bobur" ensiklopediyasi bo'ldi (III, 49, 33-37).

Qancha yillar o'tsada "Boburnoma" o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmaydi. Aksincha, har bir ilmiy izlanishlar natijasida yangi bilimlar, yangicha yo'nalishlar vujudga kelaveradi. Shuning uchun ham, "Boburnoma" tarix saltanatidagi gavhar tojdir. Ingliz tarixchisi Elfinston ta'biri bilan aytganda: " Bobur xotiralarda buyuk turkiy podsholarning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg'ulari har qanday mubolag'a va pardalashlardan xoli. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatidan "Boburnoma" chinakam tarixiy tasvir namunasidir." (II, 35, 8-9).

## 1.2 ASARDA ILMIY VA BADIY TALQIN UYG'UNLIGI

Boburning avlodlarga qoldirgan boy va bebaho ilmiy-adabiy merosida buyuk ajdodimizga jahoniy shuhrat keltirgan asari, shubhasiz, "Boburnoma"dir. Bunday asar, odatda, muallifning davr-zamonga, o'tmishga oid xotiralarini, ko'rgan va eshitganlarini ma'lum tartibga solib ifoda etishi natijasida vujudga keladi. Bu janrga xos asarlarda, ayniqsa, bo'lib o'tgan voqealarni birmuncha keyin tasvirlovchi memuarlarda muayyan darajadagi badiiy chizgilarni, tarixiy voqealarni bevosita aks ettirish bilan birga, umumlashtirib tasvirlash xususiyatini ham ko'rish mumkin. "Boburnoma" ana shunday murakkab tarkibli memuar asarlar qatoriga kiradi. Muallif uzoq muddat orasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealarga ma'lum bir nuqtayi nazardan qaraydi va baho beradi. U tasodifiy hodisalar, ikir-chikirlarni mumkin qadar qalamga olmaslikka, asosiy voqealarni tanlash, saralashga katta ahamiyat beradi, asarning badiiy ifoda kuchini oshirishga harakat qiladi. Lekin asarda voqealar xronologik tartibda bayon qilingani va unda XV asr oxiri –XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Xuroson, Afg'oniston va Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar tasvirlangani uchun u boshdan-oyoq tarixiy xususiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Bobur o'ziga xos yo'nalishdan boradi. Bu boburona yo'nalishdir. Asarda tarixiylik, ilmiylik bir xil chizgilarda borsa, badiiylik ham ulardan chetda qolmagan holatda hamohang yuradi. Biror-bir tarixiy voqeani asoslashda, asosan, ilmiylikka murojaat etsa, shu keltirgan tarixiy haqiqatning yanada ishonchli chiqishida badiiy unsurlardan mohirona foydalanadi. Asarning boshlanishida sof tarixiy voqealarni yodga oladi. O'sha davr ijtimoiy muhiti, toj-u taxt uchun kurashlar birma-bir bayon qilinadi. Jumladan, asarda temuriy hukmdorlarning o'zaro urush-talashlar oqibatida birin-ketin mag'lubiyatga uchrashi, shuningdek, Abusaid mirzo vafotidan keyin uning o'g'illari (Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud va boshqalar) o'rtasida chiqqan janjallar, Bobur va uning amakivachchalari, beklarning o'g'illari orasidagi nizolar, temuriylar bilan Shayboniyxon o'rtasida Movarounnahr uchun olib borilgan qonli kurashlar, ayrim noqobil hukmdorlar saroyidagi aysh-ishrat, fitnalar, shuningdek, buyuk sarkardaning o'zi tomonidan Afg'oniston va

Hindistonning egallanishi, hind, afg'on qabilalarining qarshiligi va ularning bostirilishi-barchasi haqqoniy tarzda, o'sha zamonga xos jimjimador va balandparvoz tasvir uslubidan farqli o'laroq, g'oyat go'zal, jonli yo'sinda hikoya qilinadi. Muallifning o'zi bu haqda shunday deydi: "Chun bu tarixda andoq iltizom qilibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay" (III, 48, 331).

Ma'lumotlarning ko'pligi, aniq va to'laligi, tarixiy voqealarning rostgo'ylik bilan bayon etilishi, xronologik izchillik, ifodaning soddaligi va ravonligi "Boburnoma"ning tarixiy va adabiy manba sifatidagi afzalliklari va jozibasini yanada oshiradi. Bu jihatdan u ko'pgina Sharq tarixchilarining kitoblaridan ustun turadi.

Ma'lumki, Sharq muarrixlarining aksariyat kitoblarida tarixiy dalillar afsona va rivoyatlar bilan bog'lanib ketadi, qalamga olinayotgan voqealar muallifning podsho va hukmdorlarga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib tasvirlanadi, birovlarini ataylab maqtab ko'kka ko'tarish, boshqa birovlarini esa kamsitib yerga urish tamoyili ham ustunlik qiladi. "Boburnoma"da esa bunday biryoqlama qarashlarni ko'rmaymiz, aksincha, unda ijtimoiy-siyosiy voqealar holis va izchil tasvirlangani tufayli o'sha davrdagi hukmron tabaqalarning fazilat va kamchiliklari ham aniq-ravshan aks etadi va o'rta asrlarning o'ziga xos ayrim xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Bularning barchasi "Boburnoma"ni aniq tarixiy dalillarga boy bo'lgan beqiyos bir tarixiy asar deb aytishga asos beradi, uning muallifi esa, avvalo, bilim va tafakkur doirasi juda keng bo'lgan alloma shaxs sifatida gavdalanadi.

Bobur "Boburnoma"dagi ba'zi voqealarni tasvirlar ekan, albatta, biror misra g'azal yoki o'sha ta'riflanayotgan kishining ijodidan bir misra, yoki biror xalq og'zaki ijodining nodir namunalari, yoinki o'sha muhitda yashayotgan xalqning biror udumlarini misol keltiradi. Bu bilan yozilajak asarning badiiy qimmatini oshirishga urinadi. Vatandan ayrilgandan so'ng chekkan iztiroblari, yor-u do'stlar xiyonatlari aks etgan sahnalarda o'z ijodidan namunalar keltiradi. Jumladan, "Boburnoma"da keltirilgan 1500-1501-yil voqealarida Samarqandning qo'ldan



ketishi bilan bog'liq voqealar , beklarning xiyonati quyidagi misrada o'z ifodasini topadi:

*"Kim ko'rubtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshiliq,*

*Kimki andin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq"* (III, 48, 135).

Bu misradan ko'rinib turibdiki, o'z yurtidan, ona tuprog'idan ayrilgan shoh ishonchli beklar tomonidan qilingan xiyonatni aslo kechira olmaydi. Boshiga musibat tushganida hatto o'z ishonchli do'stlaridan ham yaxshilik kutmaslikni anglaydi. Xuddi shu yerda ilojisiz shoh Samarqandni tark etishi bilan, yaqin mulozim-do'stlarining o'g'ir damlarda unga qilgan muomalasidan ularning asl yuzini ko'radi. Yo'lda panohtab borgan Fon begi haqida aytilgan quyidagi jumalarda gap nima haqida borayotganligini fahmlaymiz: "...Fon maliki karam va saxovat va xizmatkorlik va insoniyat bila mashhur va ma'ruf edi... Bizg'a yetganda saxovat bila mashhur bo'lg'on malik xasis bo'lur, muruvvat bila mazkur bo'lg'on elning muruvvati unutulur. Xisravshoh kim, saxovat va karam bila ma'ruf va mashhur edi. Badiuzzamon mirzog'a ne nav' xizmatkorliqlar qilg'oni mazkur bo'ldi. Yana Boqi tarxong'a va o'zga beklarga asru ko'p insoniyat va baxshishlar ko'rsatti. Ikki navbat aning viloyatidin uburumiz (orqali o'tishga) voqe bo'ldi. Bizning abnoyi jinsimiz (xonadonimiz ahli) demayki, adno (eng past) navkarlarimizga qilg'on insoniyatni (odamgarchilikni) bizga qilmadi, balki navkarimizcha bizni ko'zga ilmadi" (III, 48, 135).

O'z yurtidan ayrilgan shoh endi Kobul sari yo'lga tushadi. Yo'lda uni qanchalik xavf-xatarlar kutishini bilib, tayyor turadi. Bobur mard. U ayni damda taqdirning berayotgan zarbalarini kulib qarshilaydi. Orqasidan ergashgan sodiq navkarlari bilan Qandahordan o'tib Kobul sari o'tlanadi. Bobur 1506-1507-yil voqealarini bayon qilar ekan, tarixiylik nuqtai nazaridan yondoshib, badiiylikka ham keng urg'u berib o'tadi. Qandahordan o'tish paytlarida kuchli qor yog'ib, yo'lni to'sganligi sababli yo'l boshlovchining yo'lni yo'qotib qo'yishi, havoning naqadar izg'irinligi, Boburning o'zi beligacha keladigan qorni tepib yo'l ochishida naqadar mashaqqatlar chekkanini o'ylab, "muddatul-umr muncha mashaqqat kamroq

tortilib edi" (III, 48, 328), deya charx-u falakka murojaat etishi quyidagi o'tli misralar orqali tasvirlangan:

*"Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldimu?"*

*Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimi?"* (III,48,329).

Bundan ko'rinadiki, bir emas, ikki emas, uch marta Samarqandning qo'ldan ketishi, nafaqat Samarqand, balki Temur bunyod etgan Turon elidan batamom chiqib ketib, o'zga yurtlardan panohtopish o'g'irligi buyuk shohning qaddini bukadi. Bu holat "zolim" falakka qarab qilgan murojaatida aks etadi.

Mirzo Bobur Kobulni fath etgandan so'ng, Kobulning jamiki geografik iqlimini, tog'u-adirlarini, viloyat-u tumanlarini, hayvonot-nabotot olamini o'zgacha chizgilarda batafsil bayon etadi. Mamlakatdagi aholining turmush tarzi haqida ham ma'lumot beradi. O'lkadagi Gulbahor, Boron, Choshtuba tog' etaklari haqida ilmiy faktlarni keltiradi. Bu geografik obyektning o'ziga xosligini alohida qayd etib o'tadi. Bahor oyida mulozimlari bilan shu hududlarga aylanishga chiqadi. Gulbahor tog'i etagida ochilgan qip-qizil lolalarni ko'rib hayratlanadi. Shu o'rinda bu lolalar haqida qisqacha ilmiy faktlar keltiradi: "... Bahorlar Boron yozisi va Choshtuba dashti va Gulbahor domanasi bisyor xo'b bo'lur. Sabzasi Kobul viloyatining o'zga yerlarig'a boqa, xeyli yaxshi bo'lur, turluk-turluk lolalar ochilur, bir qatla anvoyini buyurdimkim, sanadilar, o'ttiz to'rt nav' lola chiqti" (III, 48, 343) hamda xalq tomonidan bu vodiy haqida berilgan ta'rifiy baytni keltiradi:

*Sabza-u gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,*

*Xossa bu mavsumda Boron yozisi-yu Gulbahor* (III, 48, 343).

Bu turfa gullardan ilhomlangan nozik qalb egasi " ushbu sayr kelganda bu g'azalni tugatdim" (III, 48, 343) deya, o'z g'azalidan bir bayt keltiradi:

*Mening ko'nglumki gulning g'unchasidek tah-batah qondur,*

*Agar yuz ming bahor o'lsa ochilmog'i ne imkondur?* (III,48,343)

Shoir Bobur bu baytida tashbeh san'atidan mohirona foydalanadi. Ko'nglini adirda ochilgan qip-qizil lolalarning g'unchasiga o'xshatadi. Ammo g'azalda gulning rangini tilga olmaydi. Gulning qizilligini qonga o'xshatadi.

O'xshatilayotgan qip-qizil qon yanglig' g'unchani ijodkor o'z ko'ngliga o'xshatadi. Sababi, ijodkor o'zini g'arib sezadi. Tug'ilib o'sgan ona tuprog'ini tashlab, o'zga ellarda firoq chekib yurishi, yaqinlarining xiyonati, musofirlik, muhojirlik shoir Bobur qaddini bukadi. Uni ich-ichidan g'am chekishga mahkum etadi. Butun umr Vatan sog'inchi bilan yashash kabi qismat uni aslo tark etmaydi. Ikkinchi misraga e'tibor bersak, shoh va shoir Bobur nima deyayotganini tezda anglaymiz. Agar yuz ming bahorlar qaytib kelsada ochilmog'i gumondir, chunki u yurtidan olisda. Taqdirida yana Andijonga borish nasib qiladimi, yo'qmi?, buni bilmaydi. Kitobxonga shu narsa ayon bo'ladiki, ko'ngil qachon xotirjam bo'ladi? Inson ko'ngli Vatanida tinch-xotirjamlikda, yaqinlari bag'rida, tani-joni sog'-salomatlikda yashasagina shunda baxtiyor bo'ladi. Ammo bu kabi tuyg'u Boburga bir umrlik armon bo'ldi. Chorasizlik dardiga muhtalo bo'ldi. Boburning vataniga qaytish orzusi ushalmadi. Davlati va saltanati uni umr bo'yi chet elga bog'lab qo'ydi. Binobarin u quyidagi misralarda yurt sog'inchi, Andijonga qaytib bora olmaslik armonini yurak qoni ila qog'ozga tushiradi.

*Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,*

*Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur* (III, 46, 32).

Ushbu misrada shohning yurtida mustahkam davlati yo'qligi, katta, mustahkam davlatga ega bo'lganda esa yurti yo'qligini o'zining ixtiyori va ixtiyorsizligiga buradi, shu sababli uni qayg'u va hasrat chulg'ab oladi. O'z orzusidagi buyuk davlatni o'z yurtida emas, begona yurtlarda qurganining alam nadomatlari uning qator mungli she'rlarida, ruboiylarida o'z ifodasini topadi. Yaxshiyamki, Boburga taskin beradigan ijodi va doimiy suyanadigan yaqinlari uning g'arib ko'nglini biroz bo'lsada ko'tarishadi.

O'zga yurtda hukmdorlik qilganida ham doimo o'z yaqinlari: volidasi Qutlug' Nigorxonim va sadoqatli navkari Qosimbekning foydali maslahatlariga quloq tutib yurti boshqardi. Mamlakatda adolat tamal-toshini o'rnatdi. Har ishni qilishda bobosi Temur singari yo'l tutdi. Zero Temur o'z tuzuklarida shunday degan edi: "Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim" (III, 53, 5). Mirzo Bobur ham doimo bobosi pand-nasihatlariga amal qildi. Har bir ishni

qilishdan oldin ishonchli navkarlari bilan mashvarat qildi. Yoshi ulug' vazir-u navkarlarining gaplariga quloq tutdi. O'zining "Vaqoe"sida har bir navkarining fe'l-atvori, sadoqati, alohida xislati haqida to'xtalib o'tdi. 1507-1508-yil voqealarini tasvirlar ekan, tadbirli va siyosatli kishilar haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Ya'ni Samarqanddan Boburning iziga tushib, Hirotdan uni ta'qib etib, Qandahorda fath etmoqchi bo'lgan Shayboniyxon istagini, uzoqni ko'ra biladigan, ko'p yillik tajribaga ega Qosimbek tezda fahmlaydi. Natijada hukmdori Boburni zudlik bilan bu xavfli yerdan ko'chirtiradi. Bu haqida muarrix quyidagi tarixiy faktlarni keltiradi: "... Shayboqxon Hiriyydin tog' yo'li bila meni Qandahorda xayol qilib, Qandahor ustiga ilg'ar (yuradi), ushmuni (shuni) mulohaza qilib, Qosimbek tajribaliq kishi muhassilliqlar (o'ljalar) bila Qandahordin bizni ko'churdi" (III, 48, 362). Yana yaxshi tadbirli Qosimbekka Boburning quyidagicha ta'rifi keltirilgan: "Qosimbek chun hisob bilur (uzoqni ko'ra oladigan, ehtiyotkor) kishi erdi. Qandahor navohisida ko'p turarimizni saloh (ma'qul) ko'rmay, ayta-ayta muhassilliqlari bila ko'chturdi" (III, 48, 362). Buyuk muarrix Qosimbek haqida tarixiy faktlarni keltirish bilan birga ozgina badiiylikka ham urg'u berib o'tgan. Ehtiyotkor Qosimbek haqida bildirgan fikrlaridan tashqari xalq tomonidan bildirilgan quyidagi baytni ham keltiradi:

*Har chi dar oyina javon binad,*

*Pir dar xishti puxta on binad* (III, 48, 363).

Mazmuni: Yosh kishi oynaga qarab ko'rgan narsani keksa odam pishiq g'ishtga qarab ko'ra oladi (III, 49, 208). Bundan ko'rinadiki Bobur nafaqat muarrix balki, juda kuchli ijodkorhamdir. Sababi, yozilayotgan "Voqeanoma"da faqat tarixiy-ilmiy fikrlarni keltiribgina qolmay, asarning yanada ishonchli chiqishida, mutolaa qilayotgan kitobxonni zeriktirmaslik maqsadida badiiylikka ham keng o'rin beradi. Boshiga tushgan mushkul kunlarni, turli harbiy yurishlarni tasvirlashda xalq og'zaki ijodi namunalariga ham bir muncha tayanadi. Masalan, muarrix 1499-1500-yil voqealarini qalamga olar ekan, avvalo, shu paytda bo'layotgan harbiy to'qnashuv haqida gapirib o'tadi. Ya'ni shu paytda Bobur boshliq qo'shinga uning ishongan navkarlari: Qosimbek, Alido'st, Sayyidqosimlar o'z qo'shinlari bilan kelib

qo'shiladilar. Ular birgalashib Ahmad Tanbal ustiga yurishga qaror qiladilar. Xo'jand hokimi Qambarali Tanbalga ishonib, unga ko'makka Axxi viloyatiga boradi. Ming afsuski, Tanbal dushmanlik yo'lga kirib, va'daga vafosizlik qiladi. Axxiga Qambaralini qo'lga olib, viloyatining ustiga qo'shin tortadi. Bobur bu haqda avval tarixiy haqiqatni keltirib so'ng gapining isboti sifatida turkiy maqoldan namuna keltiradi: "Qambar Ali o'z viloyati Xo'jantdin Tanbalg'a e'timod (ishonib) qilib cherik maslahatini so'zlasha Axxig'a kelur. Bu voqea bo'lg'och, Tanbal ani band qilib (qo'lga olib) olib viloyatlarining ustiga yurur. Ul bir turkiy masal bordurkim, "Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a" (III, 48, 129). Ahmad Tanbal ham vafosizlik qildi. Mirzo Bobur turkiylarda uchraydigan "Ishonmagil do'stingga, samon tiqar po'stingga"(III, 49, 100) maqolini shu sababli keltirdi.

Haqiqatdan ham vafo, sadoqat tushunchalari eng oliyjanob, insoniy xislatlar sirasiga kiradi. Zero, Hazrat Navoiy ta'birlari bilan aytganda: "Bas, kishigina hayotning lazzati yor ekan, umr degan yori vafodor ekan. Vafo odatidin uzoq odam ziyosi yo'q shamning o'zginasidir. Ziyodan ozuqasi bo'lmagan sham esa go'yoki o'tsiz ziyo, nuri bo'lmag'on bir muz parchasidir. Vafosi bo'lg'on kishinigina yor desa bo'ladi. U xuddi umr kibi vafodordur" (III, 52, 39). Buyuk sarkarda Bobur ham insonlarni sadoqatiga qarab tanlagan. Unga xiyonat qilganlarni aslo kechirmagan. Ularni taqdir hukmiga topshirgan. Yuqorida aytganimizdek, 1499-1500-yil voqealarini bayon etar ekan, Tanbalni ochiqchasiga o'ziga dushman bilib uni vafosizligini aytadi. Ammo yaqin navkarlarining xiyonatini, ikkiyuzlamachiligini kutmagan Bobur bu voqealardan lol qoladi. Xususan bu haqda quyidagi tarixiy haqiqatni bayon etadi. "Ali Do'st zaif bo'lur edi...Tanbalni orqalanib manga va mening davlatxonalarimg'a jafu va azoblar qilur edi....Ali Do'st va Muhammad Do'st o'shul ruxsat olg'on bila Tanbal qoshig'a bordilar. Tanbalg'a muqarrab (yaqin) bo'lub, g'alaba yog'iyliqlar va yamonliqlar bu otaliq (ota), o'g'ulliqdin (o'g'il) zuhrga keldi. Bir-ikki yildin so'ng Ali Do'stning ilgiga qort (kuydirgi) chiqib o'ldi....Muhammad Do'st qochib, Andijonning ko'h poyalarig'a borib yog'iyliqlar va fitnalar angiz qildi. Oxir o'zbek iligiga tushti. Ko'zlarini ko'r

qildilar: "Ko'zlarini tuz tutti"ning bu ma'nisi bor emish" (III, 48, 131). Bundan ayon bo'ladiki, Ali Do'st va Muhammad Do'st ota-bola o'z qo'shinlari bilan Bobur qo'shini safida yurishgan. Undan ruxsat so'rab, Tanbalga borib qo'shilishgan. Boburning qilgan yaxshiliklariga yarasha yomonliklar bilan javob qaytargan bu ikki ojiz bandaning umri zavolga yuz tutgan. Bobur bu ikki manfurni o'ldirsa ham bo'lardi. Ammo bu gumrohlarni falakning ilkiga topshirgan. Qarangki, Ali Do'st qo'lga kuydirgi chiqarib vafot etgan bo'lsa, Muhammad Do'st o'zbeklar tomonidan ko'zlari ko'r qilinadi. Shu o'rinda muarrix Mirzo Bobur bu voqeaga dahldor xalq naqlidan iqtibos keltiradi. "Ko'zlarini tuz tutdi" maqolini eslatib o'tadi. Do'stning qilgan ishlariga javoban dushmanlarning holi ne bo'lganini ochiqchasiga bayon etadi.

Ko'ngli yurti firoqida o'ksik Bobur, hamisha Olloh inoyatidan ega bo'lgan davlatlarini obod qildi. Shu eldagi insonlarni doimo bir ko'z bilan ko'rди. Mehmon va musofir beklarni , shu davlat yigitlarini andijonliklardan ortiq ko'rib avayladi. Boburning bunday oliyhimmatliligini quyidagi jumladan bilib olamiz: "... tengri taolo davlate berdi, mehmon va g'arib beklarni va yigitlarni boyrildin (tarbiyalaganlarim) va Andijoniylardin ortuqroq va yaxshiroq ko'rdum. Bovujud ajab baloyedurkim, hamisha el meni g'aybat qilurlarkim, boyiridin va Andijoniydin o'zgani rioyat qilmas. Masal borkim: "Dushman ne demas, tushga ne kirmas", "Darvozayi shahrro tavon bast, notavon dahani muxolifon bast" (III, 48, 243). Yuqoridagi jumalardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Bobur nafaqat jismonan baquvvat, aqlan yetuk, keng mulohazakor bo'lishi bilan birga u ,ayni paytda, oliyjanob, karam va saxovat egasidir. Fikri xayoli egallagan davlat aholisi va o'zi bilan ergashgan andijonliklarni doimo bir ko'zda ko'rish va ular o'rtasida muxolifat keltirib chiqarmaslik. Har bir ishni adolat tamoyili asosida bajaradi. Boburning maqsadi zulm va sitam bilan ezilgan xalqni to'g'ri yo'lga boshlashdir. U egallagan o'lkalarini talash, mamlakat xazinasidagi dur-u javohirlarni o'z hisobiga undirishni niyat qilmaydi. Mamlakat mustahkamligi, sarhadlarining daxlsizligi uchun astoydil kurashadi. Ot chiqarish, nom qoldirish, ismini ulug'lash uchun qo'l bilan etaklab gavhar sochmaydi. Yig'ilgan mablag'larni xalq turmushi, obodligi yo'lida sarflaydi.

U chinakamiga odil podshoh. Hazrati Navoiy asarlaridagi odil podshoh siyrati Bobur faoliyatida o'z su'ratini ko'rsatadi. Zero Navoiy: "...Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyatdur", – deya ta'kidlaydi. (III, 51, 10). Ming afsuski, Bobur hammaning ham ko'ngliga birdek yo'l topa olmadi. Balki, xalq uni noto'g'ri tushundi. Egallangan yurt aholisi Boburga o'zi va andijonliklardan tashqari boshqani o'ylamaydi, deb g'iybat gaplarni aytib, ta'na-malomat toshlarini yog'dirishadi. Shu sababli Bobur achinish, o'ksinish bilan tarixiy haqiqatni aytib, turkiy va forsiy maqollardan ham namuna keltiradi. Dastlabki maqol turkiy xalq og'zaki ijodidan "Dushman ne demas, tushga ne kirmas" bo'lsa, keyingi maqol fors ijodidan olingan bo'lib "Shahar darvozasini yopib bo'ladi, dushman og'zini yopib bo'lmaydi". Bu ikki maqolning zamirida bir xil ma'no yotadi. Ya'ni shoh qanchalik urinmasin, dushman baribir dushman. Yot elni egallab, u yerda oltin sochsa ham baribir o'sha yer aholisi unga begona. Shohni esa ana shu "begonalik" hissi qiynaydi. Sababi, o'z eli turib, o'zga elda sulton u. Shuning uchun ham, ba'zi bir insonlar tomonidan o'ylamay aytilgan gaplar buyuk shoh, nozikta'b shoirning qalbini yaralaydi. Nima bo'lganda ham uning butun fikri xayoli o'zi bilan birga bir safda turib ne-ne mashaqqatlarga bardosh bergan, o'limni bo'yniga olib, yurt kezib, jon chekib kurashlarga kirgan safdoshlarida, sodiq do'stlarida. Doimo ularni o'ylaydi. Jumladan: buyuk sarkarda 1506-1507-yil voqealarini qalamga olar ekan, avvalo, o'sha davrdagi tarixiy voqealarni bayon etadi. Ya'ni, yuqorida zikr etganimizdek, Bobur va uning safdoshlari izg'irin qishda Qandahor orqali Kobulga yo'lga o'tlanishadi. Havo chunonan sovuq ediki, odamni ko'z ochirishga qo'ymas edi. Qor shunaqangi ko'p yog'gan ediki, kishini yarim beligacha g'arq qilardi. Aksiga olib yo'l boshlovchi izini yo'qotib qo'yadi. Bobur oldinda, orqada boshqa safdoshlari qor tepib yo'l ochishardi. Shu paytda, qor tepishdan horigan Boburga safdoshlari g'orga kirib, isinib turing deyishadi. Bobur esa bularga rad javobini beradi. Muallif tilidan aytilgan quyidagi jumladan buyuk sarkarda Boburning naqadar oriyatli ekanligi, xalq dardi bilan yonishi, insonparvarligiga yana bir-bor amin bo'lamiz. "... Har necha dedilarkim, havolg'a (g'orga) boring, bormadim. Ko'ngulga kechtikim,

borcha el qorda va chopqunda (bo'ronda), men issiq uyda va istirohat bila munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila farog'atda. Muruvvattin yiroq va hamjihatliqdin qiroq (yiroq) ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: "Marg bo yoron surast" ("Do'stlar bilan birgalikdagi o'lim to'ydir") " (III, 48, 330) Bu fikrlardan shuni bilib olish mumkinki, Bobur haqiqiy oliyhimmat inson. U hech qachon o'zi jonining rohat-farog'ati uchun kurashmaydi. Garchi temuriyzoda shoh bo'lsa ham doimo o'zini oddiy xalq bilan barobar ko'radi. "Boburnoma"da tarixiy haqiqatni bayon etishi bilan birga, xuddi shu jaronni ifodalash uchun keltirgan forsiy maqoli, " Do'stlar bilan birgalikdagi o'lim to'ydir " asarning yanada biiy qimmatini oshirgan va Boburning naqadar rahm-shafqatli inson ekanligini yana bir marotaba ko'rsatishga xizmat qilgan.

"Boburnoma" matni ustida samarali ijod qilgan olim Natan Malllayev bu asarning g'oyat yetuk badiiy xususiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bayon etadi: "Boburnoma"ning asosiy tasvir obyekti tarixiy voqealardir. Biroq Bobur tarixiy voqealarni sanab o'tish yoki ular haqida ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki u tarixiy voqealarning manzarasini, tarixiy shaxslarning portreti va xarakterini, tabiat lavhalarini chizib beradi, maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoyat qiladi. Xalq yumori, xalq maqollari va ta'birlari bilan, she'riy parchalar bilan o'z asarini bezaydi, turli xildagi badiiy uslub va til vositalaridan foydalanadi. "Boburnoma"dagi voqealar turli situatsiya va konfliktlar bilan rivojlanib boradi, voqealar bir butun kompozitsiya: ekspozitsiya, kluminatsiyava yechim atrofiga uyushadi, voqealar ularning ko'pida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan Boburning o'z obrazi orqali bir-biri bilan ulanadi, o'ziga xos sujet chizig'ini yaratadi. Shuning uchun ham "Boburnoma" juda yengil o'qiladi, kitobxonni o'ziga jalb va maftun etadi " (II, 24, 596).

Haqiqatdan ham Bobur buyuk iste'dod sohibi, yuksak ijodkor. U qomusiy asari "Boburnoma"da tarixiylik, ilmiylik nuqtai-nazaridan yondoshishi bilan birga, badiiylikka ham katta e'tibor qaratdi. Asarda turli ilmiy faktlar bilan bir qatorda



nazmning kichik-kichik namunalarini ham istifoda etdi. Bobur turli xildagi badiiy murakkabliklar va shaklbozliklarga qarshi she'riyatning badiiy soddaligi uchun kurashdi. "Voqeanoma"da ham ana shunday to'rtliklardan namuna keltirdi. Asarda obrazlarning samimiyligi va tabiiyligi bilan kishini hayratga qoldiruvchi, badiiy sodda, ravon, musiqiy, tili boy, rangdor jumlalar yaratdi. "Boburnoma"da keltirilgan g'azallarda o'y va fikr, his va tuyg'u, tasvir va tavsif, so'z va musiqiylik bir-biri bilan uzviy bog'lanib boradi. Tasvirlanayotgan har bir voqea-hodisaga nisbatan o'z munosabatini ifoda etish maqsadida ijodidan nozik namunalar keltirdi. Asarda nomi tilga olingan har bir shaxslarga xolis baho berdi. Ularning xilma-xil ichki kechinmalarini, shodligi va qayg'usini, orzu va armonini, tolei va taqdirini o'ziga xos badiiy bo'yoqlar bilan tasvirladi. Kitobxonning ko'z o'ngida jonli obraz va portretlar yaratdi, tabiat lavhalari va turli manzaralarni xuddi bir rassomday chizdi. Umuman olganda, "Boburnoma" ni turkcha prozaning eng yaxshi asarlaridan biri deb aytsak hech yanglishmaymiz.

## **2.BOB. "BOBURNOMA"DA AYOLLAR TASVIRI.**

### **2. 1. ONA MEHRI VA VATAN MUHABBATI**

Ona Vatan! Nima uchun Vatan so'zi ona so'zi bilan yonma-yon ishlatiladi? Chunki, Vatan ham ona singari aziz, mehribon va qadrlidir. Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, dunyoga kelganidan keyin esa endi Ona Vatan quchog'ida unib o'sadi. Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan yer uning Vatani hisoblanadi. Buyuk shoh, qalami o'tkir shoir Mirzo Bobur ham bu ikki so'zni bir-biridan ayro ko'rmadi. Hamisha, har qadamda volidasi Qutlug' Nigorxonim va Vatani Andijonning taqdirini bir deb bildi. Oliyhimmat shoh qanchalik taqdir sinovlariga duch kelsa-da bir zum ham Vatandan ayro xayolda yashamadi. Garchi o'zga yurtlarni fath etib, buyuk boburiylar sulolasiga asos solgan bo'lsa-da, mo'tabar yurti Andijon firoqida yashadi. Boburning har bir kunida, harbiy yurishlarida, shodligida-yu musibatida birga bo'lgan onasi Qutlug' Nigorxonim onalik muhabbati ila farzandining baxti-kamoli uchun har jabhada qalqon bo'ldi. Farzandini chin dildan duo qilib, uning baxt-u saodatini so'radi, bolasini barcha tashlab ketsa hamki, uni ham yomon, ham yaxshi kunida qo'llab-quvvatladi. Bobur o'zining umr kitobi "Boburnoma"da ham volidasi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Volidasining har qadamda unga yo'ldosh ekanligini, taxtni boshqarishda ham buvisi va onasi unga davlat ishlarida boshqosh bo'lganliklarini alohida e'tirof etadi. Qobulni egallaganga qadar qaysi shaharlarda bo'lgan bo'lsa onasi Qutlug' Nigorxonim uning yonida yurganini quyidagi tarixiy haqiqatlarda bayon etadi: "... mening volidam-Qutlug'Nigorxonim aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh – olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birida tengri rahmatig'a bordilar" (III, 48, 241). Bundan ko'rinadiki, Qutlug' Nigorxonimda onalik muhabbati har narsadan ustun. U hatto o'z tug'ishganlaridan yillar davomida ayro yashasada, farzandi – jigargo'shasi Boburdan bir lahza ham bo'lak yasholmaydi. Bobur onasi haqida yozar ekan, uning Toshkentda yurgan og'a-inilari bilan uzoq judoliklarda yurgani, doim oilasi tinchligi uchun qayg'urganini, har

nafasda oila bag'ridan bir nafas bo'lsa ham chekinmaganini eslaydi. Qutlug' Nigorxonimning turmush o'rtog'i Umarshayx Mirzoning sirli o'limidan so'ng barcha qadrdon yor- birodarlarini ko'rolmagan edi. " Xonim xon bobom shunqor bo'lg'oli onalari, inilari, singillarim, Shohbegim va Sulton Mahmudxon va Nigorxonim va Davlat Sultonxonim bo'lg'aylar, ko'rmaydurlar edi. Muforaqat imtidodi (judolik muddati) o'n uch-o'n to'rt yilga tortib edi, tuqqonlarini ko'rgani Toshkandg'a mutavajjih bo'ldilar" (III, 48, 158). Demak bundan shunday xulosa chiqarsak, Nigorxonim haqiqiy oqila ayol. Garchand farzandlarining otasi, turmush o'rtog'i qazo qilsa ham, ayrim ayollardek ko'ngli o'zga yor-u do'stlar havasi bilan yonmadi. Yurtning istiqboli, farzandlarining baxti-kamoli, onalik mehrining ustunligi sababli, dilbandi Bobur Mirzoning kelajagi uchun har qancha sargardonliklarni, firoq-u g'urbatni birga bosib o'tdi. Bobur umr kitobida farzandlariga umrini baxshida qilgan oqila ayollarga, yurtiga, podshohiga sadoqat saqlagan ayollarni alohida hurmat-e'tibor bilan tilga oladi. Vatanining tinchligini zavol , farzandining jonini uvol , erga tegish havasi ustunlik qilgan Zuhrabegi og'a singari ayollarni keskin qoralaydi. Bunday ayollarni ayol nomiga munosib ko'rmaydi. Qandaydir bir havasni deb, yurtni g'animga berib qo'ygan bu kabi ayollarni yana nima deb atash mumkin, axir? Zuhrabegi og'a asli Boburning amakisi Sulton Mahmudning haramidagi ayollardan, Samarqand taxtidagi shahzoda Sulton Ali Mirzoning onasi edi. Shayboniyxondek kuchli g'animga Samarqanddek shahri azimning olishida shu beaql, kaltafahm ayolning "hissa"si bor edi. Tafsiloti buki: "Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegi og'a bilmasligidin va beaqlig'idin maxfiy Shayboniyxong'a kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniyxong'a Samarqandni berg'ay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sulton Ali Mirzog'a berg'ay" (III, 48, 131). Bunday xom xayolga berilgan ayolning qilmishidan nafaqat o'g'li balki, butun xalq xarob bo'ldi. Temuriylarning Samarqandni tashlab, olis Kobul yurtlariga yo'l olishi, umr bo'yi Hindiston tuproqlarida turib, Andijon firoqida yashashdek jabr-u sitamga sababchi mana shu ayol bo'ldi. Mirzo Bobur bu haqda: "...bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonumonin barbod berdi.

Shayboniyxon bir zarra parvo ham qilmadi, g'uma-g'unchachicha ham ko'rmadi" (III, 48, 132). Shayboniyxondak zakovatli g'anim o'z jigargo'shasiga shunday taqdirni ravo ko'rgan bu ayolni balki haram ayoli, cho'ri xizmatkorlaricha ham ko'zga ilmaydi. Ya'ni Vataniga nisbatan qilingan xiyonat, oxir oqibat Shayboniyxonga ham qilinajagini his etib, Zuhrabegini, Mansur Baxshi ismli bir xizmatkoriga tortiq qiladi. Oqibat Zuhrabegi og'aning hayot kitobi Mansur Baxshi qo'lida xotima topadi. Xo'sh, shu tobda haqli bir savol tug'iladi, bu ayolda onalik mehri mujassam edimi, yoinki Vatanga sadoqat tuyg'usi ustun edimi?

Kishining yor-u do'stlariga qilgan xiyonatini kechirsa bo'lar, ammo tug'ilib o'sgan Vataniga qilgan xiyonatini kechirib bo'ladimi? Axir Vatan muqaddasdir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam aytganlaridek: "Hubbul-vatani minal-imoni – Vatanni suymak imondandur" (III, 48, 43). Mirzo Bobur ham butun umr shu Vatanni suydi, ardoqladi ammo, zolim falakning gardishi bilan umr bo'yi shu Vatan firoqida yashadi. Andijonda dunyoga kelib, taqdirning achchiq sinovlari tufayli hijron azobida umr kechirdi. Boburning vatanga bo'lgan muhabbati cheksiz edi.. Bu muhabbatda iztirob, sog'inch, alam, o'kinch, qaytish orzusi mujassam edi. Boburning vatanga bo'lgan muhabbati har narsadan ustun edi. Otasidan ayrilgan kuni murg'ak ko'nglida kechganlarini yuragining tubiga ko'mib, birdan ulg'aygan onlaridan, she'rga cho'mgan armon to'la hayotidan hikoya qiluvchi "Boburnoma"da barcha dil tug'yonlarini bayon qildi.

"...Farg'ona viloyatiga o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim", deb boshlaydi kitobni Bobur. Shu kundan qalbi gul Boburning boshi toshlarga urildi – u taqdir sinovlari ichida sarson-sargardon yurdi: goh yengdi, goh yengildi, topganlarini yo'qotdi, izlaganini topdi va oxir-oqibat mungli bir haqiqatni anglab yetgach:

*"Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,*

*Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim"* (III, 46, 41),

deya yozadi. "Boburnoma" mamlakatlar haqida so'zlaydi. Bobur ilojsiz tashlab ketgan, yuragidagi armonlardan bino bo'lgan yurtlar haqida so'zlaydi: Andijon, Samarqand, Kobul, Hindiston. Ularni Boburning taqdir yo'llari bir-biriga

tutashtirdi. “Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi”, deb hasrat qilgan shoir tolesiz kunlariga esh bo‘lib yashadi – kurashdi, dunyodagi katta hukmdorlar ham amalga oshirolmaydigan ishlarga qo‘l urdi, ularni uddaladi... (II, 35, 4)

Bobosi Amir Temur saltanatidek ulkan davlat qurishni orzu qilgan Bobur Samarqandga kirib borishga jur‘at qildi, shuhrat topdi, qamalda ham qolib, lashkari bilan birga ko‘p azoblarni tortdi, keyinroq turli tadbirlarni qo‘llab yana Samarqandga intildi, shaharni egalladi. Shunday bo‘lsa-da, xatolaridan o‘z xulosalariga keldi: *“Har ishnikim ayladim, xatolig‘ bo‘ldi...”*

Shoirtabiat bu shoh boshqa hukmdorlardan farqli o‘laroq ko‘proq ko‘ngliga quloq tutdi. She’rlarida esa g‘ussadan qonga to‘lgan ko‘nglining hasratlarini yashirmadi

*Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tax-batax qondur,*

*Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur* (III, 46, 39),

Mazkur bayt, aslida, Boburning ishqiy mavzudagi g‘azalidan. Bir qarashda u faqat yor hajrida bitilgandek. Albatta, baytdagi bu mazmuni inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo undagi iztirobning kuchi shoirning butun hayotiga daxldor. Bir yonda armon bilan yonib eslagani – Andijon, bir yonda o‘z ixtiyori bilan tashlab ketgani – Samarqand, boshqa bir yonda Shayboniyxon qo‘liga tushgan opasi – Xonzodabegimning taqdiri, yaqinlarining xiyonati, ishonganlarining sustkashligi, yana bir yonda esa Ahmad tanballar...

Oldinda katta yo‘l. Og‘ir va mashaqqatli yo‘l. Or va nomus yo‘li. Katta orzularga erishish imkoni yo‘li. Faqat bu yo‘ldan yurishni uddalash kerak. Oldinda – Afg‘oniston, Hindiston... Shoir ishq haqida yozadimi, yorning visolu hijroni haqidami, o‘z hayotini, taqdirini – boshidan kechirgan iztiroblarini ulardan ajratib qo‘yolmaydi. Bobur kayhoni andozada fikrlaydigan katta shaxs edi. Uning shaxs sifatidagi butunligi “Boburnoma” sahifalariga ham muhrlangan. Har bir harakati, a‘moli, so‘zlari, siyosati atrofida qilargalarga ibrat edi. Hatto o‘lim bilan necha bor yuzma-yuz kelgan bo‘lsa, har safar uni oxirigacha his qilishga jur‘at va kuch topishi, unga tayyorligini namoyish qila olishi yonidagi yigitlarga, lashkarga juda katta madad berardi.

Umri har qancha mashaqqatlarga to'la bo'lmasin, Bobur hayotni sevardi.

Shu bois ham:

*Bo'lmadim umrumda bir dam, xotiri xurram bila,  
Gar iliktin kelsa bir damni kechurmang g'am bila, –*

(III, 47, 28) kabi misralari bilan o'zgalarni hayotni sevishtga, umrning qadriga yetishga chorlar edi. Bobur Hindistonda vatan qurdi. Bog'-rog'lar yaratdi. Dastlab kirib borganida ko'ngliga mahzunlik solgan, g'arib ko'ringan yerlarni obod qildi. Jumladan, u borgan yerlarini tasvirlab o'tar ekan, u yerlardagi bunyodkorlik ishlariga alohida to'xtaladi. "Boburnoma"da 1503-1504-yil voqealarini bayon qilar ekan, Kobulning olinishi haqida batafsil to'xtalib, Kobul tabiatining tasvirini nozik chizgilarda bayon etadi: " Rabbiulavval oyining avoxirida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G'azni mulk viloyatini bejang-u jidol muyassar va muxtasar qildi", – deya so'zida davom etar ekan, Kobuldagi obodonchiliklar, bunyodkorliklar xususida yozadi. "Garmseriy mevalar misli norunj va turunj va amluk va nayshakar Lamg'onotdin keltururlar. Nayshakarni kelturub ekturub edim" (III, 48, 216). Ya'ni Kobul yaqinidagi yerlarda apelsin, limon, amluk (ananas), shakarqamishni Lamg'onot o'lkasidan keltirganlar. Shoh Boburning buyrug'iga binoan nayshakar Kobul yerlarida ham qurildi. Shundan so'ng shoh Bobur bir-bir Kobul yurtlarini obod etishga kirishdi. Kobul kentlaridan Laho'r va Dipalpurni olgan yillari, u yerlarda keyla (banan) keltirib ekdi. "Boburnoma"dan o'qiymiz: "Pahorxonni bosib, Lohur va Diboldpurni fath qilg'an yili qila (banan) kelturub, ekturub edim, sabz bo'lub edi (III, 48, 222). Bundan tashqari yo'l qurilishlariga ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Ningnahor va Kobul orasi juda yomon yo'l bo'lgan. Yo'lto'sar va qaroqchi afg'onlar juda ko'p bo'lgan. Obodonchilik yo'q, shu sababli u yerda el yashamagan. Saxovatpesha Bobur Qo'ruqsoyning etagi – Qoratu mavzesini bunyod qildirdi. "Xirilji va jami' kuttout-tariyq (yo'lto'sar-qaroqchi) afg'onlardur, bu yo'lni urarlar edi. Bu orada ma'mura yo'q erdi. Qo'ruqsoyning oyog'i Qoratuni men ma'mura qildurdum. Bu jihatdin yo'l amin bo'ldi" (III, 48, 221). Yana Mirzo Bobur Chag'onsaroyini olganida, Mir Sayyid Ali Hamadoniy

rahmatulloh mozorini tavof qildi. Soxta mullalar qilmishlarini fosh etib, bundan keyin barcha din ahllarining ishlarini qayta boshdan isloh qildirdi.

Mamlakatning obodligiga ham katta e'tibor berdi. "Boburnoma"da Istalifning tabiat manzaralarini tasvirlar ekan, bu kentda Bog'i Kalon nomli Ulug'bek Mirzoga tegishli bir bog' borligini aytadi va shu bog'ning egalariga pulini berib olganligini bayon etadi. Bu bog'ning o'rtasida chinorlar o'sishi va shu chinorlar orasida bir ariqning egri-bugri holatda, ko'rimsizgina oqishini tasvirlaydi. Shunda Boburning ko'rsatmasi bilan ariq to'g'ri reja asosida qurilib, bu yer obod maskanga aylantiriladi. "Boburnoma"dan o'qiymiz: "Bog'ning o'rtasidin bir tegirmon suyi hamisha joriydur. Bu ariq yoqasida chinorlar va daraxtlardur, burun bu ariq egri-bukri va besiyuq edi. Men buyurdimkim, bu ariqni raja va siyoq bila qildilar. Bisyor yaxshi yer bo'ldi" (III, 48, 229). Bundan tashqari, Kobul tog' etaklaridagi Xoja Seyoron chashmasini ham obod etdi. Bu haqda Bobur shunday deydi: "... chashmaning atrofini men sangkorliq qildurdum. (tosh terdirdim) Bu chashmaning chorhadi siyoqliq, go'niyalig taxti bo'ldi, tamom arg'uvonzorg'a mushrif, arg'uvon guli ochilg'on mahalda muncha yer ma'lum emaskim, olamda bo'lg'ay" (III, 48, 230). Demak, bundan ko'rinadiki, qalbi ona vataniga bo'lgan muhabbati tufayli, bunyodkorlik hislari bilan to'lib-toshgan Bobur, o'z yurtidan ayrilgandan so'ng, fath etgan shaharlari Kobul, Hindistonda bir qancha obodonchilik ishlarini amalga oshirdi. Qalbi o'ksik shoh endi bildiki, ona yurti ancha olisda, qo'l yetmas joyda, endi har qancha urinmasin qaytib Andijon tuprog'iga qadam bosa olmaydi, endi Andijon havosidan to'yib nafas ololmaydi. Shu sababli, u egallagan yurtlarida Andijonga qilmoqchi bo'lgan bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. Fath etilgan shaharlarning obodligiga alohida e'tibor qaratadi. Ammo, Andijonni, Samarqandni – ota yurti, ona vatanni unutmaydi, uni mudom sog'inib yashaydi. Hayotning g'am-alamlariga cho'mgan kezlarda ulug' mutafakkir Navoiyni o'qidi...

Ikki buyuk shaxs Alisher Navoiy va Bobur taqdirini she'riyat tutashtirdi. Yurt g'ami, mamlakat obodligi, el farovonligi yo'lidagi orzular birlashtirdi. Hazrat Navoiy Husayn Boyqaro saroyida amirlik qilib, el g'ami bilan yonib yashagan

bo'lsa, Amir Temurdek ulkan saltanat qurishni istab, umri yurtgirlik bilan o'tgan Bobur g'urbatda vatan qurdirdi.

Ijodni endi boshlagan damlari Navoiyga maktub bitgan Bobur o'z asarida hazratni qayta-qayta eslaydi. Hirotga safar qilib borganida Navoiy yashagan uyda yigirma kun umrguzaronlik qilgan chog'lari xotiridan kechgan o'ylari, shoir barpo etgan bog'u rog'lar, masjidu madrasalar, ariq-hovuzlarni ko'rib, obod yurt barpo etishga moyil ko'nglida ulug' rejalar tug'ildi. Axir, keyinroq Hindistonda Boburning sa'y-harakati bilan qad ko'targan imoratlar, yashnoq bog' va gulzorlarning tarhi dastlab Hirotida ko'ngilga tugilmaganmidi? Bobosidek ulkan saltanat qurish orzusida yongan Boburning qalbidagi cho'g'ni Navoiyning amallari olovlantirmadimi? Bobur Navoiyni o'ziga ustoz deb bilardi. U "Boburnoma"ning yuzga yaqin o'rnida Navoiyni eslaydi. Kitobning dastlabki sahifalariyoq Navoiyni yodga olib, Andijon xalqi tilining adabiy tilga to'g'ri kelishi haqida gapirib, Navoiy Hirotida shu tilda yozib, nash'u namo topgani haqida gapiradi. Bobur Navoiydan ta'sirlanib, uning g'azallariga naziralar bog'ladi, ustoz shoirga hamohang ruboiylar yozdi. Ruboiylarining aksariyatida vatan sog'inchi, hijron iztiroblari eng ko'p ko'zga tashlandi.

Yurtidan ketib, sargardon yurgan, Hindistonga kirib borgan damlar shoir ko'nglidan kechgan tuyg'ularni Boburning o'zidek his qilish osonmas. Biroq uning birgina g'azali yoxud to'rt misrali ruboiysi ko'nglidagi hasrat, iztirobni hammaga oshkor etadi. Ba'zan bir kishiga qaratilgandek tuyulgan misralarda ham shoirning intim tuyg'ulari emas, balki butun umri davomida ortmoqlab o'tgan katta dard bor:

*Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,  
Sabrimni kamu, g'amimni bisyor aylar.  
To dahr durur, budir aning rasmiki,  
Oyrib kishini azizidin, xor aylar (III, 47, 31).*

O'zigacha Hindistonga kirib borib, u yerda saltanat qurgan hukmdorlar haqida Bobur shunday deydi:



“...Hazrati Risolat (payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.) zamonidan shu kungacha Hindistonga biz tarafdin faqat uch kishigina hokim bo‘lib, o‘z saltanatini o‘rnatgan. Ulardan biri – Sulton Mahmud G‘oziy bo‘lib, u va uning avlodi saltanat taxtida uzoq muddat o‘tirdilar. Ikkinchisi – Sulton Shihobiddin G‘uriy edi. Uning o‘zi, qullari va unga tobe bo‘lgan kishilar bu mamlakatda ko‘p yillar podsholik qildilar. Uchinchisi – menman, lekin mening ishim u podshohlarning ishiga o‘xshamaydi” (III, 48, 411).

Nega bu shohlarning shuhrati Boburchalik bo‘lmadi? Buning sabablari ko‘p. Eng muhimi, Bobur ulardan farqli o‘laroq, Hindistonda vatan qurdi. Ona vatanidan ko‘nglini uzolmay, u yerga qaytolmasligini anglab tursa-da, ko‘nglidagi niyati so‘nmadi, o‘zi qaytolmasa, farzandlari qaytishini o‘ylab yaratdi bu vatanni. Andijonda, Samarqandda, Kobulda, Hirotda ko‘zlarining tubiga yashirgan, ko‘nglida asrab-avaylagan orzularini Hindiston zamini uzra sochdi. Bog‘lar yaratdi, gulzorlar barpo etdi. Bir faslga yo bir yilga yaraydigan qamish uylar va boshqa omonat kulbalar o‘rniga baland imoratlar soldi, ariqlar torttirib, hovuzlar qazdirdi, obodonchilik ishlarini olib bordi. Eng muhimi, elning ko‘ngliga yo‘l topdi, elning mehrini qozondi.

Zahiriddin Muhammad Bobur qalbi go‘zal, kechirimli donishmand edi. “Boburnoma”ning mazmuni buni yana bir bor isbotlaydi. Turli mamlakatlar, kentlar va ularning tabiati, odamlarining hayoti tasvirida nuqtadon olim qiyofasida namoyon bo‘lgan shoh va shoir, ayni paytda, o‘z maqsadiga erishish uchun farmonlar chiqaradi, qo‘shindagi yigitlarni ruhlantiradi, g‘alabaga da‘vat etadi. Uning qalbidagi judolik iztiroblari, sog‘inch va hasrat ham “Boburnoma” misralari zaminiga singib ketgan. Biroq shular bilan birga Bobur hayotsevar, nekbin inson edi. Sog‘inch, hasrat va nekbinlikning uyg‘unlashuvi Boburning katta shaxs sifatidagi qiyofasini namoyish qiladi.

Bobur she‘rlari, yurt firoqida bitilgan ruboiylari bugun ham har qanday kitobxonning qalbiga kirib bora oladi. Ularda soxta lutf, ortiqcha jimjimadorlik, eng muhimi, riyo yo‘q. Shoirning mumtoz she‘riyatimizda yangicha ruh – Vatan va unga bo‘lgan ishq ulug‘vorligi yo‘g‘rilgan she‘rlari diqqatga sazovordir.

Shu o‘rinda adabiyotshunos olim V. Rahmonovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb topdim:., Badiiy mahorat bobida biror o‘zbek shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi.... uninag mumtoz she‘riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she‘riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg‘ulariga jon bag‘ishlaydi” (II, 27, 4).

Darhaqiqat, Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ko‘pgina she‘rlari hasbi hol mazmunida bo‘lib, mavzu jihatdan vatan va unga bo‘lgan sog‘inch asosiy o‘ringa chiqadi. Uning ijodida o‘z hayoti bilan baqamtilik sezilib turadi: shoh sifatida boshiga tushgan qiyinchiliklarni qog‘ozga tushiradi. Zero, vatandan ayrolik, vataniga hukmdor bo‘lolmagani shoir nazdida o‘z., xato‘laridan biri ekanligini yozadi:

*Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.  
O‘z yerin qo‘yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi* (III, 47, 24).

Tarixiy asarlarga nazar tashlar ekanmiz, o‘sha davrda Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy muhit Boburning yurtda uzoq vaqt hukmdorlik qilishiga yo‘l bermagan. Boburning o‘zi xususidagi yuqoridagi ayblovi esa uning o‘ziga nisbatan talabchanligidan, kamtar inson bo‘lganidan dalolat beradi. U benihoyat aziyat chekib, o‘zga yurtga (avval Kobulga) ketishga majbur bo‘ladi. Shoir bu haqda quyidagi g‘azalda shunday deydi:

*El bilmasa holatim, bilur yor,  
Holimdin erur Xudoy ogoh.  
Kobul sori gar azimat etsang,  
Qurbon qilay o‘zni sanga, ey shoh!  
Bobur yana o‘tluq oh chekting,  
Kuydurmasun elni oh nogoh!* (III, 47, 27).

Ko‘rinadiki, Bobur hayotidagi turli qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, garchi u zakovat bobida ham munosib tarbiya ko‘rgan bo‘lsa-da, uning aql charxini

yanada o'tkirlab, donishmandga aylantirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, uning ko'pgina g'azallarida faylasufona ruh yaqqol namoyon bo'ladi:

*Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardir,*

*Bu olamda o'zumni chun yamon – yaxshidin o'tkardim (III, 46, 37).*

U Movarounnahrni tark etgach, ijodida Vatan motivi yanada kuchaydi, alohida hasratli mazmun kasb etdi. Endilikda vatan tushunchasi ham, g'urbat va g'ariblik tushunchalari ham kengayadi, konkretlashadi. Shoirga ona yurtida qolgan do'st-u yor, xesh-u aqrabolar va, hatto, tug'ilgan o'lka tabiati, noz-u ne'matlari Vatanni eslatadi, uning bir bo'lagi sifatida sog'inch bilan orzu etiladi, ardoqlanadi:

*Qovun birla uzumning hajrida ko'nglimda g'am har so',*

*Oqar suvning firoqidin ko'zimdin har dam oqar suv (III, 34, 11).*

Ma'lumki, Bobur adolatli podshoh sifatida, hukmron bo'lgan yurtlarda ham adolatli siyosat yuritdi. Xalqni ma'rifatga, bunyodkorlikka chorladi. Ma'naviy hayotga salbiy ta'sir etuvchi omillardan voz kechib, jamiyat hayotida ularni ta'qiqlab qo'ydi. Hind xalqi hayoti va madaniyatining gullab-yashnashiga yuksak hissa qo'shdi. O'zining ilm-u irfoni bilan ma'rifatni yanada rivojlantirdi. Ammo umr bo'yi uning xayolini Vatan, unga bo'lgan intilish band etdi:

*Ne yerda bo'lsang, ey gul andadur chun joni Boburning,*

*G'aribing'a tarahhum aylagilkim, andijoniydir (III, 46, 19).*

Shoir faqat ko'nglida kechirganini, boshidan o'tkazganini yozdi. Yozganda ham ko'nglining tub-tubida asrab, jamlab, jonu jahoniga aylantirib, keyin yozdi. Boburning o'zi qayd etishicha, ko'p vaqtgacha biror g'azalini bir yozishda oxirigacha tugatolgan emas. Chunki u hamisha yo'lda, jangda – ot ustida bo'ldi. Bir bayt yoki ikki bayt ko'ngilga tugilgach, bu tugun shoir boshidan kechirayotgan boshqa voqealarga ham bog'lanib ketgandan so'ng yechildi. Bunda esa ularning ma'no ko'lamdorligi, ta'sir quvvati ortdi, kuchaydi, shu bois she'rdagi dard-hasrat kitobxon dardiga aylanishi oson kechadi. Kitobxon dardiga aylangan asarlar, asrlar oshsada o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Yaratilgan shu asarlar ta'sirida yuzaga kelgan hijron dardi, yaratilajak asarlarga ham Boburning qalb tug'yonlari bilan birga ko'chadi. Boburni umr bo'yi ezib kelgan, ezilib yashashga mahkum etgan

sog'inch hissi o'zbekning sevimli shoiri Sirojiddin Sayyid ijodida ham o'z aksini topadi:

*Vatan nadir – anglang ranj-u ozoridan,  
So'rang uni Mirzo Bobur mozoridan.  
O'z zuryodin haydab gulshan, gulzoridan,  
Dovonlarda bag'ri biryon yurt edi bu... (III, 54, 44)*

Mirzo Boburning tahlikali hayotidan, mehr to'la ijodidan ta'sirlangan bir qator ijodkorlar uning shaxsiyatiga xos chizgilarini o'z asarlari orqali yaratdi. Tele ekranlarda Bobur siymosi gavdalantirildi. Bu o'rinda , Boburning hayotidan hikoya qiluvchi qimmatli manbaa "Boburnoma" , muallifning dard to'la qalbini anglashda, undagi sog'inch tuyg'ularini his qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

“Boburnoma” mohiyatan vatan haqidagi, uni sevish va qadrlashga bag'ishlangan go'zal asardir. Shu bois, sharqshunos olim A.Samoylovich e'tirof etganidek, Bobur asarlarini o'rganish, tarjima qilish va nashr etish burch, sharaf va baxtdir.

## 2.2. OQILA AYOL HIMMATI

Ayol! Haq taolo tomonidan yaratilgan buyuk xilqat! Ayol nafosat va go'zallik dunyosining rahnamosi. Ayol bor ekanki, butun olam charog'on va munavvar. Ayol bir qo'lida beshikni tebratsa, bir qo'lida dunyoni tebratadi. Shuning uchun ham asrlar davomida ayol xilqatiga mansub nafosat egalari ardoqlanib kelingan. Temuriylar saltanati hukmdori Amir Temur ham pokiza qalb va yuksak intilishlar sohibasi bo'lgan pokziynat vujudlarga alohida e'tibor qaratgan.. "Temur tuzuklari"da keltirilishicha, "Mamlakatida birgina ayol qolganda ham hurmatini joyiga qo'ygan bo'lardim" (II, 38, 23). Shu birgina jumlada ayollarga bo'lgan hurmatini ilg'ab olsa bo'ladi. Ota-bobolari ishlarini davom ettirgan, temuriy hukmdor Mirzo Bobur ham bobosi Temur singari ayollik dunyosiga mansub bo'lgan har bir ma'suma qalblarni ulug'lagan. Ularga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatgan. Qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr rishtalarini mustahkamlagan. Mirzo Bobur o'zining umr kitobi – "Boburnoma"da ham bir necha ayollar timsollarini yaratgan. Ularning nomlarini bayon qilishda, ulardagi oliyjanoblik, yuksak tuyg'ular, go'zallik fazilatlari alohida tilga olinadi. Bobur asarda ayollarning insoniy qiyofasiga qarab baho beradi. Eng avvalo, ulardagi sadoqat tuyg'ularini hamma narsadan ustun qo'yadi.

Bobur "Boburnoma" sahifalarida opasi Xonzodabegimning sadoqati va jasoratini qaynoq qalbidan sizilib chiqayotgan his-tuyg'ular ila tilga oladi. Asarning 1501-1502-yil voqealarida keltirilishicha, Bobur Samarqandni qo'ldan boy beradi. Natijada, Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Chorasizlikdan bu sulhga rozi bo'lgan Bobur Samarqandni tark etadi. "Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboqxonning ilgiga tushadi" (III, 48, 156). Boburning boshiga og'ir kunlar tushganda, Shayboniyxon uni halok etadigan bo'lganda — Samarqand qamali chog'i opasi Xonzodabegim unga shunday yaxshilik qiladiki, o'zini asoratga solib bo'lsa-da, ukasini qutqaradi. Bu xalqimiz tarixidagi dilbar sahifalardan biridir. Ajdodlardan me'ros bo'lib qolgan kishilarimizning bir-biriga mehru oqibati, sadoqati, fidoyiligi shunda yaqqol ko'rinadi.

Xonzodabegim Shayboniyxon haramida o'n yil arosatda yashaydi. Shayboniyxon o'limidan keyin shoh Ismoil Boburning hurmati tufayli opasini inisi yoniga yubortiradi. Yaxshilik izziz ketmaydi, deganlaridek, bu paytda Bobur Qunduz shahrida edi, u darhol chopar yuborib Marvdagi opasini Qunduzga olib keltiradi. Mirzo Bobur shaxsiyatiga xos ulug'vorlik mana shu yerda ko'rinadi. U opasini to umrining oxirlariga qadar hurmatini joyiga qo'yadi. Qo'yingki, nafaqat opasini balki, qavm-u qarindoshlarining barchasining hurmatini joyiga qo'yib, odamiylik rishtalarini yanada mustahkamlashga harakat qiladi. Gulbadanbegim o'zining «Humoyunnoma» asarida Boburning qarindosh ayollarga bo'lgan ehtiromi borasida quyidagilarni yozadi: «Podshoh hazratlari Agra shahrida to'rt yil turdilar. Har juma kuni ammalarini ko'rgani borar edilar. Bir kun havo nihoyatda issiq edi, onam hazratlari: «Bugun havo nihoyatda issiq, agar juma kuni ko'rgani bormasangiz, nima bo'ladi, begimlar bundan xafa bo'lmasalar kerak», deb so'radilar. Podshoh onamga mana bunday javob berdilar: «Mohim, Sizdan bu gapning chiqishi taajjubdir. Hazrat Abu Said mirzoning qizlari o'z ota va birodarlaridan judo bo'lib, bu yerga kelgan, agar men ularning ko'nglini olmasam, unda nima bo'ladi?» (III, 50, 44). Bundan ko'rinadiki, Mirzo Bobur haqiqiy mard, tanti, odamoxun. U har qanday vaziyatda yaxshilikka yaxshilik bilan, kerak bo'lsa yomonlikka ham yaxshilik bilan javob qaytaradigan javonmarddir.

"Boburnoma"ni o'qish jarayonida Boburning iste'dodiga, iqtidoriga tan bermay iloj yo'q. Chunki asarning bir necha o'rinlarida o'z fikrlarining izohi, sharhi sifatida, tasvirlanayotgan tarixiy shaxslarga aloqador ayollar mohirona tasvirlar ta'sirida ochib beriladi. Jumladan, asarning boshlanishida ya'ni 1494-yil voqealari bayonida padari temuriy Umarshayx Mirzoni tasvirlayotganida, uning nasl nasabi, shakl shamoyili, fe'l-atvori, jang-urushlarini batafsil bayon qilish jarayonida, Mirzoning avlodi, xotin va kanizaklari haqida ham mufassal ma'lumot keltiradi. Ma'lumotlarga qaraganda, Umarshayx Mirzoning xotinlari:

1. Fotima Sulton og'a ,– "Mirzo baridin burun bu Fotima Sulton og'ani olib edi" (III, 49, 25). Fotima Sulton og'a mo'g'ul turkman beklari avlodidan edi. Uning farzandi Jahongirmirzo bo'lib, Mirzo Boburdan ikki yosh kichik edi.

2. Yana bir ayoli Qutluq Nigorxonimdir. U chingiziylar avlodidan bo'lib, Yunusxonning ikkinchi qizi. Uning farzandlari: Xonzodabegim va undan besh yosh kichik inisi Bobur Mirzo edi.

3. Umarshayx Mirzoning haramlaridagi ayollaridan yana biri Xoja Husaynbekning qizi Ulus og'a edi. Uning ham bir qizi bor edi, go'dakligida o'ldi. Bir yil- bir yarim yildan so'ng uni haramdan chiqardilar.

4. Yana biri Qorako'zbekim (Maxdumsultonbegim) edi. Mirzo unga keyinchalik uylangan, ancha suyuqli xotini edi. "Umarshayx Mirzoning xushomadig'a ( yoqish uchun ) nasabini Sulton Abusaid mirzoning og'asi Minuchehr Mirzog'a yetkurub erdi" (III, 48, 25). Farzandi – Ruqiya Sultonbegim. Mirzoning vafotidan so'ng tug'ilgan. ("O'sha tala-to'p paytida Jonibek sultonga uzatilgan, bir-ikki o'g'illi bo'ldi, biroq bolalari turmadi") (III, 49, 49).

Cho'ri va kanizlari ancha edi. Ulardan biri andijonlik Umid g'unchachi edi. "Mirzodin burunroq qazo qilgan" (III, 48, 25). Farzandlari: Nosir Mirzo (Boburdan to'rt yosh kichik edi), Mehrbonubegim, Shahrbonubegimlar edi.

Yana bir kanizi Og'asulton ismli g'unchachi edi. Yagona Yodgorsultonbegim ismli qizi bo'lgan. Onasi va otasi Mirzoning vafotidan so'ng, Eson Davlatbegim qo'lida tarbiyalangan.

Umarshayx Mirzoning umrining so'nggi mahallardagi kanizi Tunsulton bo'lib, u mo'g'ullardan edi.

Mirzo Bobur "Boburnoma" sahifalarida amakilari Sulton Ahmad mirzo va Sulton Mahmud mirzoni tasvirlashda ham ularning avlodiga, haramidagi ayollarga alohida to'xtalgan. Amakisi Sulton Ahmadning avlodi vakillarini bir-bir izohlab, haramidagi xotinlari va kanizaklariga xos xususiyatlarni ham aytib o'tadi. Unga ko'ra: Sultonning ikki o'g'li bo'lib, ular kichikligida vafot etgan. Qizlaridan beshta bo'lib, to'rttasi Qutluqbegimdan , bittasi Habiba sultonbegimdan edi.

Haramidagi ayollardan:

- birinchi ayolini otasi Sulton Abusaid Mirzo olib bergan bo'lib, u Yunusxonning katta qizi Mehr Nigorxonim edi. "... mening onamning tuqg'on egachisi erdi", – deya izoh berib o'tadi (III, 48, 37).

- yana biri tarxonlardan edi. Uni Tarxonbegim der edilar.
- Yana biri Tarxonbegimning ko'kaldoshi Qutluqbegim edi. Sulton Ahmad Mirzo oshiq bo'lib olgan, juda suyuqli va xo'b erka tantiq edi.

Bobur bu haqda shunday deydi: " ... Sulton Ahmad Mirzo oshiqlik bilan olib edi, asru ko'p suyuqlik edi va ko'p musallit edi. Chog'ir ichar edi. Aning tirikligida Sulton Ahmad mirzo o'zga haramg'a bormas edi. Oxir o'lturdi va badnomlig'idin xalos bo'ldi" (III, 48, 37). Demak, Sulton Ahmad Mirzoning eng suyuqli ayoli Qutluqbegim botinan go'zal-u ammo, zohiran ayol nomiga nomunosib ayollardan bo'lgan desak, hech yanglishmaymiz. Sababi, ayollik nazokatini o'zida mujassam etgan har bir ayolda bu kabi yaramas illatlar bo'lmasligi lozim. Zero, may ichish erkaklarga xosdir. Erka-tantiqlik esa har qanday oqila ayolning sha'niga yarashmaydi. Hazrati Navoiyning ayollarga berilgan ta'rifi bilan aytganda: "Husni bo'lsa ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi" (III, 51, 201). Bu ayolning husni bor edi, ammo oqilalik xislatidan ancha yiroqroq edi .

- Sulton Ahmadning yana bir ayoli Xonzodabegim bo'lib, uning kelib-chiqishi Tirmiz xonzodalariga borib taqaladi. Buyuk muarrix bu ayol to'g'risida quyidagicha izoh berib o'tadi: "Men Samarqandg'a besh yoshimda Sulton Ahmad mirzo qoshig'a kelgan fursatda olib edi. Hanuz yuz yopig'i bor edi. Turkona rasm bilan menga buyurdilar, men yuzini ochdim" (III, 48, 38).

- Yana bir ayoli Ahmad Hojibekning Latifbegim ismli qiz nabirasi bo'lib, avval Mirzoga so'ng, Hamza sultonga turmushga chiqqan. Hamza sultonda uch o'g'il ham ko'rgan.

- Yana bir ayoli Sulton Arg'unning jiyani Habiba sultonbegim bo'lgan.

"Boburnoma"ni diqqat bilan mutolaa qilar ekanmiz, Habiba sultonbegim bilan keyinchalik Mirzo Bobur qarindoshlik iplarini mustahkamlab unga kuyov bo'lganligini anglab olamiz. Mirzo Bobur 1506-1507-yil voqealarini bayon etar ekan, Xurosonda Alisherbek xonaqohlarini aylanib yurgan paytlari Habiba sultonbegim va uning qizini ko'rib qolganligini bayon etadi. Ya'ni: "Sulton Ahmad



mirzoning kichik qizi Ma'suma Sultonbegimni onasi Habiba Sultonbegim bu fataratlardin burunroq Xuroson olib kelgon ekandur, bir kun men okamni ko'ra kelganda onasi bila kelib, meni ko'rdi. Ko'rgach –o'q (shu zahotiyoyq) manga xeyli mayl paydo bo'ldi. Maxfiy kishilar borib .... so'zlashib andoq muqarrar qildikim, mening keyinimcha yanga qizini olib Kobulg'a kelgay" (III, 48, 326). Keyingi sahifalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Mirzo Bobur Kobulda bo'lganida Habiba Sultonbegim qizi Ma'suma Sultonbegimni Kobulga olib boradi. Bobur u yerda Ma'suma Sultonbegimni o'z nikohiga oladi. G'ofurjon Sotimovning "Boburiyzodalar" kitobidan bu ayol va uning taqdiri haqida mufassal ma'lumotga ega bo'lamiz. Ma'lumotlarga ko'ra: "Ma'suma Sultonbegim . Boburning birinchi xotini Oysha Sultonbegim vafotidan so'ng, Boburshoh uni Xurosonda uchratib qolib, o'ziga turmushga chiqishni so'ragan va Kobulga olib kelib unga uylangan. Undan bir qiz tug'ilib, u chaqaloqligidayoq onasi vafot etgan va unga onasining ismini qo'yishgan" (III, 53, 9). Keyinchalik bu qizning taqdiri yana buyuk temuriylarga borib taqaladi. Ya'ni u: " Ma'suma Sultonbegim Hirot shohi Mirzo Husayn Boyqaroning nevarasi, Mirzo Badiuzzamonning o'g'li Muhammad Zamon Mirzoga turmushga chiqadi" (III, 53, 7).

Mirzo Bobur yana bir amakisi Sulton Mahmudning shajarasi, oila ahli, avlodlarini tasvirlashda, Mirzoning haramidagi ayollarga ham bir-bir izohlar berib o'tadi. Jumladan, Mirzoning avlodlariga to'xtalib, o'n bir o'g'li va besh qizi borligini aytadi. Haramidagi ayollardan eng kattasi – Mir Buzrug Tirmiziyning qizi Xonzodabegim edi. Mirzo uni juda sevardi. U Sulton Ma'sud Mirzoning onasi edi. "Boburnoma"dagi ma'lumotlarga ko'ra, "Ul o'lganda mirzo bisyor qattiq ta'ziyat tutqondur" (III, 48, 49).

Undan so'ng Mirzo Mir Buzrugning nabirasi – Xonzodabegimning birodarzodasini oldi. Uni ham Xonzodabegim der edilar. Bir o'g'il va besh qiz ko'rdi. "O'g'li Sulton Husayn Mirzo – otasi tirikligida o'n uch yoshida tangri rahmatiga bordi" (III, 49, 62) . Qizlari – kattasi Abobakr Qoshg'ariyga turmushga chiqqan. Keyingisi Bikabegim, uchinchisi Oqbegim, to'rtinchisi Oybegim, beshinchisi Zaynab Sultonbegim. Bobur Mirzo xuddi amakisi Sulton Ahmad

mirzoga kuyov bo'lgani singari Sulton Mahmud mirzoga ham kuyov bo'ladi. Bobur onasining taklifi bilan Sulton Mahmudning beshinchi qizi Zaynab Sultonbegimni ham o'z nikohiga oladi. Bu haqda Boburning o'zi quyidagicha yozadi: "Kobulni olg'onda onam Qutluq Nig'orxonimning sa'yi bila oldim, xeyli sozvorliq (hamjihatlik) bo'lmadi. Ikki- uch yildin so'ng obila zahmati (chechak xastaligi) bilan olamdin bordi" (III, 48, 49).

Sulton Ahmad Mirzoning yana bir ayoli Yunusxonning qizi , " mening onamning singili " (III, 48, 48) Sulton Nigorxonim edi. Undan yolg'iz o'g'il bo'lib, u Sulton Uvays Mirzo edi. Bundan ko'rinadiki, temuriy Abu Said Mirzoning har uchala o'g'li: Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzolar chingiziy Yunusxonning uch qiziga uylanishgan ekanlar. Sulton Mahmud Mirzoning yana bir ayoli Poshshobegim bo'lib, uning nasl-nasabi Qoraqo'yluq Bahorlu aymog'idan bo'lgan turkman beklariga borib taqalardi. Otasi turkman beklaridan Ali Shukurbek edi. Bundan tashqari Mirzoning cho'ri va kanizlari ham ancha edi. Sulton Ali Mirzo va Maxduma Sultonbegimlarning onasi Zuhrabegi Og'a Sulton Mahmudning mo'tabar cho'risi edi. Kanizlari ham ancha bo'lib, Mirzodan Rajabsulton va Muhibsulton ismli ikkita qiz ko'rishgan.

Ayrim ayollar borasida o'zining xolisona fikrlarini ham aytib o'tgan. Masalan, katta buvisi Esan Davlatbegimni tasvirlashda o'sha zamon nuqtai nazaridan yondoshib xolisona baho bergan. Asarda yozilishicha: "Xotunlar orasida ra'y (fikrlash) va tadbirda mening ulug' onam Esan Davlatbegimcha kam bo'lg'ay edi, bisyor oqila va mudabbira (tadbirli) edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi" (III, 48, 44). Mirzo Bobur Eson Davlatbegimning Movorounnahrning oldi ayollaridan, yuksak tafakkur sohibasi bo'lganligi uchun alohida qadrlagan. Yana Mirzo Bobur shaxsiyatida ayollarning hurmat-e'tibori ularning nasabiga qarab emas, balki ulardagi sadoqat, fidoiylik, vafo kabi sof insoniylik tuyg'ularining mavjudligiga qarab xolisona baho berilgan. Mamlakatdagi barcha ayollarga birdek izzat-ikrom ko'rsatgan Mirzo Bobur, hayotining eng og'ir damlarida u bilan birga bo'lgan hatto eng oddiy xizmatchilarni ham yuqori martabalarga ko'rgan, ulardagi sadoqat tuyg'usini ulug'lab, alohida

hurmat-e'tibor bilan qaragan. "Boburnoma"ning 1501-1502-yil voqealarida bayon qilinishicha, Bobur Shayboniyxondan yengilib Samarqandni tark etar chog'da Xonzodabegimdan boshqa barcha yaqinlari u bilan ketishadi. Uzoq yillardan beri Qutlug' Nigorxonimga xizmat qilib yurgan otinga ulov topilmaydi va u ham Samarqandda qoladi. O'z xo'jayiniga sadoqat tuyg'usining ustunligi hamda Shayboniyxondek g'animning qo'lida tutqun bo'lib qolishdek mudhish taqdirni o'ziga begona deb bilgan otin Samarqanddan to Peshog'argacha ot-ulovlar izidan yayov yetib kelib xo'jayni Qutlug' Nigorxonim va shohi Boburmirzo bilan uchrashadi. Bu haqda Bobur: "...Pashog'arning qo'rg'onida otun kim, muddati madid mening onam xonimg'a mulozamat qilur edi, bu navbat uloqsizliqdin Samarqandta qolib edi, uchray tushti (uchrab qoldi) , ko'rushtum, so'rdim. Samarqanddan bu yerga yayoq kelibtur" (III, 48, 157). Otinning Qutlug' Nigorxonimga, Boburga sadoqati uning shuncha masofalik yo'lning piyoda bosib o'tishidan bilib olsa bo'ladi. Otin aslida oddiy bir xizmatkor ayol, ammo undagi odamiylik tuyg'usining ustunligi uning yuqori davlatli, nasabli kishilardan ham ustun turishini yana bir marotaba oqladi.

Mirzo Bobur o'zining umr kitobida yana bir buyuk temuriy mirzo, Sulton Husayn Mirzoning shajarasini tasvirlar ekan, uning haramidagi ahl-u ayollariga ham alohida e'tibor bergan. Husayn Boyqaroning ayrim ayollari xususida o'zining ijobiy yoki salbiy fikrlarini ham aytib o'tgan. Jumladan, Sulton Husayn – Mirzo Mansur va Feruzabegimning farzandi. Undan o'n to'rt o'g'il va o'n bir qiz farzand qolgan. Xotinlaridan eng ulug'i Beka Sultonbegim edi. Sanjar Mirzo Mavriyning qizi bo'lgan. Boyqaroning o'g'li Badiuzzamon Mirzo undan tug'ilgan. Mirzo Bobur bu ayol to'g'risida quyidagi fikrlarini aytib o'tgan: " Ko'p kajjulq (xulqi egri) edi. Sulton Husayn Mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajjulqlig'idin mirzo batang (bezor) keldi, oxiri qo'ydi, xalos bo'ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi.

*Zani bad dar saroyi mardi nako',*

*Ham dar in olam ast do'zaxi o'. (Sa'diy)*

Tangri hech musulmong'a bu baloni solmag'ay. Yomon xo'yulq (fe'lli), kajjulq xotun ilohiy olamda qolmag'ay" (III, 48, 284). Mirzo Bobur bu ayolning naqadar

badxulqligini aytib, so'zining isboti sifatida Shayx Sa'diydan bir bayt misol keltiradi. Bizga Sa'diyning "Guliston"idan ayonki, muallifning o'zi ham bir necha yil umrini badfe'l ayol bilan o'tkazgan, ko'p aziyatlar chekkan. Fors tilida yozilgan bu baytning tarjimasiga e'tibor qaratsak, undagi hayotiy haqiqatni tezda anglaymiz.

*Yaxshi er uyida yaramas xotin,*

*Shu dunyoda erning do'zaxi tayin.* (III, 49, 171)

Buyuk muarrix so'zining oxirida Tangri hech musulmonga bunday baloni solmasin, yomon xotin ,iloho, olamda qolmasin deya o'z so'ziga yakun yasaydi.

– Xotinlaridan yana biri, Cho'libegim bo'lib, u Ozod beklarining qizi edi. Husayn Boyqaroning Sul-tonimbegim ismli qizi undan tug'ilgan. Bobur bu qiz haqida quyidagicha yozadi: " Xeyli so'z bilur erdi. So'zga mungi yo'q (so'zga chechan ) erdi " (III, 48, 282).

Yana biri, Shahrbonubegim edi. Boburning bobosi Sul-ton Abu Said Mirzoning qizi bo'lib, Husayn Boyqaro taxtni olgandan so'ng bu ayolni olgan edi. Eriga itoatsiz, kalondimog' bu ayol xususida Bobur shunday deydi: " Chekmon urushida mirzoning jami haramlari mihaffadin (taxtiravondan) chiqib otqa minganlarida bu inisining e'timodig'a (ukasiga ishonib) mihaffadin chiqmagan va otqa minmagan. Muni Mirzog'a yetkururlar, bu jihatdin Shahrbonubegimni qo'ydi va singlisi Poyanda Sul-tonbegimni oldi " (III, 48, 284). Bundan chiqdiki, Sul-ton Husayn Boyqaroning uchinchi ayoli Poyanda Sul-tonbegim. Bu ayol Boyqarodan to'rt qiz farzand ko'rgan. Sul-tonbegimning ham taqdiri xuddi opasi singari baxtli lahzalardan mosuvo bo'ldi. Sababi opa-singil temuriylardagi kibr-havo, manmanlik hislarining ustunligi edi. Poyanda Sul-tonbegimning hayot yo'lini Bobur quyidagicha bayon etadi: "O'zbek Xurosonni olg'ondin so'ng, Poyanda Sul-tonbegim Iroqqa bordi. Iroqda g'aribliqda naql qildi (vafot etdi)" (III, 48, 284).

Mirzo Bobur Sul-ton Husayn Boyqaroning to'rtinchi ayoli borasida o'zining keskin fikrlarini bayon etadi. Chunki, muarrix tasvirlayotgan bu ayolda na ayollik nazokatini va na onalik nafosatini ko'ra oladi. Qalamga olinayotgan ayol Xadichabegim bo'lib, avval Sul-ton Abu Said Mirzoning g'unchachisi bo'lgan. Mirzodan Oqbegim ismli bir qizi ham bo'lgan. Iroqda Sul-ton Abu Said Mirzo

yengilgandan so'ng Hirotda keladi. Bobur bu ayol hayotini quyidagicha tasvirlaydi: "...Hiriya keldi. Hiriya Sulton Husayn mirzo oldi va sevdi, g'unchachilik martabasidan begimlik martabasig'a taraqqiy qildi. So'nglar xud asru (bosh begim) ixtiyor bo'lub edi. Muhammad Mo'min Mirzoni aning sa'yi bila o'lturdilar. Sulton Husayn Mirzoning o'g'lonlari yog'liqtillar, ko'praki muning jihatidan edi. O'zini oqil tutar edi, vale beaql va purgo'y (vaysaqi) xotun edi, rofiziya ham ekandur" (III, 48, 285). Otani o'g'ildan, o'g'ilni otadan ayirishga uringan, Badiuzzamon Mirzoning suyuqli farzandidan judo ettirgan bu kabi beaql ayolni yana nima deb atash mumkin? Sulton Husaynning g'unchachisidan begimlik martabasiga erishgan, keyinchalik saroyda bosh begim bo'lib olgan bu ayol o'z mansabidan foydalanib Sultonning nevarasi Mo'min Mirzoning bevaqt hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'lgan.

Mirzoning yana bir ayoli Opoqbegim edi. Undan hech o'g'il va qiz bo'lmadi. Mirzoning suyuqli xotini Popo og'acha buning ko'kaldoshi edi. O'g'il-qizi bo'lmagani uchun Popo og'achaning o'g'illarini o'g'lidek asrardi. Mirzoning xastalik chog'larida ko'p yaxshi xizmat qilardi. "Ayollardan hech kim buncha xizmat qila olmasdi. Men Hindustonga keladigan yili Hirotdan keldi. Men ham qo'ldan kelgancha ta'zim va ehtirom qildim. Chanderiyni qamal qilganda xabar keldiki, Tangri rahmatiga boribdi" (III, 49, 172). Mirzo Bobur asarda bu ma'suma ayol xususida bir talay ijobiy so'zlarni aytadi. Bu kabi ayollarning eriga bo'lgan vafosini alohida sharaflaydi. Har to'kisda bir kamchilik bo'lganidek, taqdirida ona bo'lish baxti chopmagan Opoqbegim, qaynoq taftida onalik mehri jo'sh urganligi sababli ko'kaldoshi Popo og'achaning farzandlarini oq yuvib, oq taraydi.

Mirzoning suyuqli ayollari qatorida yana bir ayol bu – Popo og'achadir. Husayn Mirzo uni ko'rib, sevib oldi. Bu ayol Mirzodan besh o'g'il, to'rt qiz ko'rdi.

Yana bir ayoli Minglibiy og'acha bo'lib, u o'zbek edi. Shahrbonu begimga qarindoshligi bor edi. Abuturob mirzo, Muhammad Husayn mirzo, Faridun Husayn mirzo va yana ikki qizning onasi edi.

Husayn Boyqaroning haramidagi ayollardan tashqari unga tortiq qilingan cho'rilar ham bor edi. Cho'rilaridan biri Latif Sulton og'achadir. Mirzoning

o'g'illari Abulmuhsin mirzo va Kepak mirzo shu ayoldan tug'ilgan edi, – deya izoh beradi buyuk muarrix.

Husayn Mirzoning yana bir ayoli Begisulton og'acha bo'lib, undan o'g'il-qiz bo'lmadi. Bundan tashqari, Mirzo Bobur Husayn Boyqaro ahli ayollarini tasvirlar ekan, so'zi oxirida quyidagilarni qayd qiladi: "Yana kichik-kirim cho'ri, g'unchachi ko'p edi. Xotinlari va cho'rilaridan mo'tabarlarini zikr etdik.

Buni qarangki, Sulton Husayn Mirzodek ulug' podshoh, Hirotdek islom shahri podshohining bu o'n to'rt o'g'lidan uchtasi nikohdagi ayollaridan tug'ilgan edi. Fisq-u fujur o'zida, o'g'illarida va el-ulusi orasida juda keng tarqalgandi. Ushbularning kasofatidan, shunday ulug' xonadondan yetti-sakkiz yilda bir Muhammad Zamon mirzodan o'zga nom va nishon qolmadi" (III, 49, 172). Mirzo Bobur temuriylarning eng e'tiborli vakili Sulton Husayn Boyqaroning butun saltanati fahsh, aysh-ishratga nihoyatda mukkasidan ketganligi va shunday ulug' xonadondan deyarli hech zot qolmaganligini aytadi. Asar bilan to'liq tanishib chiqqan har bir kitobxonga shu narsa ayon bo'ladiki, muallif nihoyatda chinchkov. Taqdirdan kelayotgan har bir zarbalarning yuzaga kelish tub mohiyatini to'zg'i anglaydi va kitobxonga har bir bosilayotgan egri qadamning javobi albatta berilajagini tarixiy voqealarga tayanib, isbotlab o'tadi.

Mirzo Bobur o'z asarida ayollar dunyosiga, ularning mamlakatda tutgan mavqeyiga hamda bu nozik xilqat egalarining mislsiz talofatlar, urush va to'qnashuvlarning oldini oluvchi buyuk timsol sifatida qaraydi. Sababi, asrning bir necha o'rinlarida tarixiy haqiqatlar ochil berilgan. Asarning 1495-1496-yil voqealarida Sulton Mahmud mirzoning Xonzodabegimdan bo'lgan katta qizini, Abu Said mirzoning Poyanda sulton begimdan bo'lgan Haydar Mirzoga olib berib o'zaro yarash bitimini tuzadilar. Bu bitim tufayli Hisor aholisi bo'lagigan tala-to'p urushlardan xalos bo'lib, mamlakatda sozandalar to'y-tomosha kuylarini chalishadi.

Demak, fikrimizga shunday yakun yarasak, sharq xalqlarida azaldan ayol zotiga o'zgacha nazar tashlangan. Mirzo Bobur ham ayollik latofati-yu malohatini alohida lutf ila qadrlagan. Bu nozik xilqat egalariga alohida ehtiromlar ko'rsatgan. Bu undagi o'ziga xos odamoxunlik xususiyatlardan biridir.

## XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining XV asrda yashab ijod etgan buyuk namoyondalaridan biridir. Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asari XVI asr o'zbek nasrining eng qimmatli namunasi.

Bu asar mazmun e'tibori bilan qomusiydir. Unda Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, O'rta Sharq va Hindiston o'lkalarining tarixi, etnografiyasi, adabiyoti va etnik qatlamlari tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosi tili adabiyotiga oid qimmatli va ishonarli ma'lumotlar jamlangan. Bu shoh asarda adib Boburning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli til uslubi, uning o'ziga xos betakror go'zalligi o'z aksini topgan. Asarning bosh qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburning o'zi. Uning hatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, maqsad va intilishlari, ularni amalga oshirishdagi qat'iyat va mahorati asar qahramonini ideal qahramon darajasiga ko'taradi.

Boburning eng muhim tomoni shuki, u o'z asari bo'lmish "Boburnoma"ni turkiy (eski o'zbek tilida) yaratilganligi adibning o'z ona tili rivojiga qanchalik e'tibor qaratganligidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda, Boburning "Boburnoma" asari o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda ham noyob manbalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Boburnoma"ni sinchiklab o'qish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, "Boburnoma"ni o'qigan kitobxon ilm – fanning juda ko'p sohalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olishi bilan birga, Zahiriddin Muhammad Boburning nihoyatda murakkab, ayni paytda sarkarda sifatida mard – jasur, inson sifatida jozibador, ota sifatida farzandlari uchun mehribon – fidoiy qalbning porloq siymosini yaqqol tasavvur qiladi. Shu jihatdan Hindistonning atoqli jamoat arbobi Javoharlal Neru'ning "Hindistonning kashf etilishi" asarida Bobur haqida aytgan quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir: "Bobur dilbar shaxs uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan xuzur qilishni yaxshi ko'rardi".

Bobur o`zining ma`lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo`shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi. "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlar ichida katta ahamiyatga ega bo'lgan muallifning shajarasidir. Chunki kitobxon temuriyzodar haqidagi zarur ma'lumotlarni shu asardan oladi. "Boburnoma"da keltirilgan har bir shaxs tarixiy fakt asosida, hech qanday o'zgartirishlarsiz, bo'rttirishlarsiz, ortiqcha jimjimadorliklardan xoli tarzda asarga kiritilgan. Boburning ona tomondan ajdodlari, ota tomondan ajdodlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Muallif ularni ketma- ket joylashtirib ismlarini keltiradi, zarur hollarda ularga ta'rif berib, ular bilan bog'liq har bir voqeaga urg'u berib o'tadi. Umarshayx mirzo, Qutlug' Nigorxonim, Eson Davlatbegim, Xonzodabegim hamda Mirzo Bobur o'z farzandlarini asarning turli o'rinlarida alohida boblarda ta'riflaydi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev yuksak ma'naviyatli avlod uchun jon kuydirayotgan bir davrda Boburning hayoti va ijodi yuksak namuna maktabi bo'la oladi, desak also mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Buyuk Boburning asarlari ,jumladan, "Boburnoma" o'zining butun malohati, nafosati, tarovati bilan yurtdoshlarini vatanga muhabbat ruhida, go'zallikka, ezgulikka da'vat ruhida tarbiyalaydi. Bobur asarlarining tarbiyaviy ahamiyati asrlar o'tsa ham also pasaymaydi.

Biz ishda Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma"dagi pokziynat vujudlar, samimiy qalb egalari – ayollarga xos berilgan turli ta'rif-u tavsiflarni, ular sha'niga bitilgan turli sharhlarni imkon darajasida tahlil qilishga harakat qildik. Asarda nomlari keltirilgan ayollar bilan yaqindan tanishdik. Tahlil jarayonida ayollarning qaysi shajaraga mansub ekanligini aniqladik. Mirzo Boburning shu nomlarini zikr qilgan ayollariga munosabatini tahlillar jarayonida kuzatdik. Muallif tomonidan ayrim ayollarga bildirilgan yuksak ehtiromni ko'rib, Mirzo Boburning mahorati a'lo darajada ekanligining guvohi bo'ldik. Asarda bayon qilinayotgan biror voqeaning isboti, tasvirlanayotgan biror hududda istiqomat qiladigan ayol xilqatiga mansub zotlarga xos turli urf-odat, udumlarning tavsifi



yoinki, asarda qalamga olinayotgan temuriy hukmdorlarga tegishli ahl-u ayollarga bildirilgan xolisona fikrlarni soda, tushunarli jumlalarda kuzatdik va mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bobur o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasidir.
2. "Boburnoma" mavzusi jihatdan rang – barang tusda yozilgan nodir adabiy manbaa.
3. "Boburnoma" voqeaviyligi, tarixiy davr imkon qadar yoritilganligi bilan ajralib turadi.
4. "Boburnoma" da ijtimoiy hayotning turli manzaralari tasvirlangan.
5. "Boburnoma"da ayollar tasviri juda mahorat bilan tasvirlangan.
6. Bobur tomonidan ayollarga bildirilgan fikrlarning mazmuni teran.
7. Ayollar muallif tomonidan bildirilgan ijobiy yoki salbiy fikriga ko'ra qiyosan tahlilga tortilgan.
8. Asarda keltirilgan ruboiylarining tili tushunarli va aniq.
9. Bobur "Boburnoma" bilan o'zbek adabiyotshunosligini yana bir pag'ona yuksakka ko'tardi.
10. "Boburnoma" nihoyatda samimiyligi bilan kishini o'ziga tortadi.

Xullas, Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyati, shajarasi, va avlodlarini o'rganish yo'lida ushbu nodir asar eng katta tarixiy, yozma manba hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

### I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlar:

1. Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1994, – 99-бет.
2. Каримов И. А. Истиқлол ва ма'навият. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1994, – 160-бет.
3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1996, –
4. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби . – Тошкент: "Ўзбекистон", 1997, – 348-бет.
6. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва кафолатлари . – Тошкент: "Ўзбекистон", 1997, – 326-бет.
7. Каримов И. А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: "Шарк" нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1998, – 4-бет.
8. Каримов И. А. Буюк келажак сари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1999, – 524-бет.
9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
10. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009.

## II. Monografiya, risola, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalar:

11. Адабиёт назарияси, 2 томлик. 1-том. – Тошкент: "Фан", 1979, 447 бет.
12. Адабиёт назарияси, 2 томлик. 2-том. – Тошкент: "Фан", 1979, 448 бет.
13. Adizova I. "Bobur boburiylarga badiiy mahorat" // Til va adabiyot ta'limi. – 2014. 3-son. – 41-bet.
14. Баҳодир Карим. "... Даҳо аро қолди фалакдин яхшилиғ" // Халқ сўзи. – 2012. 14-февраль, 30-сон.
15. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: "Фан", 1974 – 149-бет.
16. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи. XIX-XX асрлар – Тошкент: "Фан", 1973 – 192-бет.
17. Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: "Фан", 1992, 134-бет.
18. Воҳидов Р ва бошқалар. Сўз бағридаги ма'рифат. – Тошкент: "Фан", 2001, 76 бет.
19. Jalolov N. "Buyuk davlat arbobi Z. M. Bobur" // Milliy tiklanish. – 2017, 15-fevral. № 7, 5-bet.
20. З. М. Бобур. "Юрт та'рифида бир неча сўз". ("Бобурнома"дан) // Бухоро мавжлари. – 2013. 1-сон, 11-бет.
21. Ismoil Bekjon "Boburiylar madaniyatiga oid manba" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2013, 7-iyun. 23-son, 3-bet.
22. Yusupova D. "Bobur Mirzoning otalik muhabbati" // Ma'rifat. – 2014. 1-son, 11- bet.
23. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1976, 663 бет.
24. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1976, 663 бет.
25. Murodov G', Murodova S. "Shoh va shoir shaxsiyati" // Buxoronoma. – 2016-yil. № 15, 4-bet.

26. Навоий А. Адабиёт маҳорати масалалари. Мақолалар тўплами. – Тошкент "Фан", 1993, 208 бет.
27. Olim Sultonmurod. "Yaxshilik Bobur g'azallarining yorqin ifodasi" // Buxoronoma. – 2017-yil, 11-fevral. № 14, 4-bet.
28. Qudratullayev H. "Boburga saxovat pand berganmi?" // Jahon adabiyoti. – 2008, Avgust. B 193-198
29. Qudratullayev H. "Oilaparvar Bobur" // Xalq so'zi. – 2012, 14-fevral. 31-son, 4-bet.
30. Qudratullayev H. "Bobur shaxsiyatining yorqin jihatlari" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2012, 10-fevral, № 6.
31. Qudratullayev H. "Boburnoma" da obodlik va yaratuvchanlik talqini" // Huquq va burch. – 2013-yil, 2-son. B-31.
32. Qudratullayev H. "Boburning davlatchilik siyosati" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2014, 9-may. B-11.
33. Qudratullayev H. "Adolatli jamiyat qurish orzusi. (Bobur asarida davlatchilik)" // Jamiyat. – 2015, 13-fevral. № 6. B-5.
34. Qudratullayev H. "Naqqosh mening holima tadbir etgil. (Bobur ijodida nasr va nazm)" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2015, 13-fevral, № 7. B-11.
35. Qudratullayev H. "Bobur shaxsiyati to'g'risida" // Buxoro mavjlari. – 2016-yil, 7-fevral. № 15. B-4.
36. Rafiddinov S. "Boburning irfoniy qarashlari" // O'zbek tili va adabiyoti. – 2013. 5-son, 34-bet.
37. Rajabova I. "Boburnoma"da qahramon portreti va ruhiy holat ifodasi" // O'zbek tili va dadbiyoti. – 2010-yil, № 2, 62-65-betlar.
38. Rajabov B. "Boburnoma" va Amir Temur haqida ma'lumotlar" // O'zbek tili va adabiyoti. – 2017-yil. № 3, 31-37-betlar.
39. Rahmonov V, Egamova Y. "Davlatchilik siyosati va diplomatiya mas'uliyati" // O'zbek adabiyoti va san'ati. – 2012 . № 16, 3-bet.
40. Сўфиева С. "Гулбаданбегим" // Хаёт. – № 7, 2008-йил, 3-бет.
41. Toshev S. "Bobur bunyodkor" // Ma'rifat. – 2010-yil, 13-fevral. B 8-9.

42. Ulug'ov N. "Boburning klassik tarixi" // O'zbek tili va adabiyoti. – 2014, № 2, 130-bet.
43. Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. III kitob. – Buxoro: 2005, 63-105-betlar.
44. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик, 2-том. – Тошкент: "Фан", 1977, 447 бет.

### **III. Badiiy adabiyotlar:**

45. Ахлоқ – одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: "Фан", 1990, 174 бет.
46. Бобур. З.М. Ғарибинг Андижонийдур. Рубоийлар, ғазаллар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1979. – 242 бет.
47. Бобур. З. М. Маҳрами асрор топмадим. Рубоийлар, ғазаллар, қит'алар. – Тошкент: "Фан", 1986. – 40 бет.
48. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
49. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaхo`jayeva tabdili) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
50. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.
51. Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 13-том. Маҳбубул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – 242 бет.
52. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 493 bet.
53. Сотимов Ғ. Бобурийзодолар. – Тошкент: "Ўқитувчи", 2003. – 69 бет.
54. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: "Sharq", 2006. – 144 bet.
55. Ҳасанхўжа Нисорий. Музақкири аҳбоб. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 344 бет.
56. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми ? – Тошкент: "Шарқ", 2001. – 48 бет.

#### **IV. Lug'atlar:**

57. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: "Фан", 1985.

58. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

59. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли, 1-том. – Тошкент: "Рус тили" нашриёти, 1981. – 631бет.

60. Қошғарий М. Девони луғотит турк. Уч томлик, 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1961. – 428 бет.

## MUNDARIJA

<b>I. Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>1.BOB. "Boburnoma"ning tarkibi va tuzilishi.....</b>	<b>7</b>
1.1. Asarning o'rganilish tarixi.....	15
1.2. Asarda badiiy va ilmiy talqin uyg'unligi.....	23
<b>2.BOB. "Boburnoma"da ayollar tasviri .....</b>	<b>35</b>
2. 1. Ona mehri va Vatan muhabbati.....	36
2. 2. Oqila ayol himmati.....	45
<b>III. Xulosa.....</b>	<b>55</b>
<b>IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>58</b>